

***O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI***

***Alisher Navoiy nomidagi
Samarqand davlat universiteti
TARIX fakulteti
TARIX yo`nalishi.
Umumiy tarix kafedrasida***

XIX asrning ikkinchi yarmida rus-turk munosabatlari.

Malakaviy bitiruv ishi

Bajardi:

Sharipova M.

Ilmiy rahbar:

Tursunov B.

Malakaviy bitiruv ishi tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrasida bajarildi.
Kafedra 2012-yil 29 maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya
etildi (bayonnoma №10).

Kafedra mudiri:

Hoshimova M.M.

**Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2012-yil _____iyundagi majlisida himoya
qilindi va _____ foizga baholandi (Bayonnoma №_____)**

YaDAK raisi:

YaDAK a`zolari:

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-5
I. Bob. XIX ASR O'RTALARIDA YEVROPADA XALQARO AHVOL VA QRIM URUSHI (1853-1856).....	6-34
1.1. "Sharq masalasi".....	6-12
1.2. Qrim urushi.....	13-26
1.3. Parij tinchlik kongressi va xalqaro munosabatlar.....	27-34
II. Bob. BOLQON INQIROZI VA RUS–TURK URUSHI (1877– 1878).....	35-56
2.1. Bolqondagi siyosiy vaziyat.....	35-43
2.2. Rus-turk urushi.....	44-50
2.3. San-Stefano sulhi va Berlin kongressi.....	51-56
XULOSA	57-60
MANBALAR VA ADABIYOTLAR.....	61-62

KIRISH

XIX asr birinchi yarmida Yevropa davlatlarining xalqaro hayotida Rossiya hukmron mavqiyeni egalladi. Bunga u Napoleon Fransiyasi ustidan qozonilgan g'alaba va Vena kongressidan so'ng erishgan edi. Biroq asr o'rtalariga kelib Rossiya og'ir ijtimoiy – iqtisodiy inqirozga yuz tutdi. Ushbu jarayon chorizmning xalqaro miqyosda yakkalanib qolishi bilan yanada chuqurlashdi. Mamlakatning hukmron doiralari mazkur murakkab vaziyatdan chiqish yo'lini urushlarda va yangi mustamlakalar bosib olishda ko'radilar. Rossiya bunday bosqinchilik urushini o'zidan ham qoloqroq va zaifroq bo'lgan Usmoniylar imperiyasiga qarshi olib borishga harakat qiladi.

Usmoniylar davlati ham ushbu davrda chuqur ijtimoiy – iqtisodiy inqirozni boshidan kechirayotgan edi. Bu hol ko'p millatli imperiya aholisi orasida milliy – ozodlik harakatlarining ko'tarilishi bilan, Yevropa davlatlarining mamlakat hududida o'zlarining iqtisodiy va siyosiy hukmronligini o'rnatish uchun bo'lgan kurashlari bilan yanada murakkablashmoqda edi. Yevropa davlatlarining Usmoniylar davlati mustamlakalarini egallash uchun bo'lgan kurashi “sharq masalasi” yoki “sharq inqirozi” ni keltirib chiqardi.

XIX asr o'rtalarida “sharq masalasi” yana kun taribiga ko'tarildi. Rossiyaning Usmoniylar davlatiga qarashli Kavkaz, Dunay bo'yi knyazliklari va Bolqon hisobidan mustamlakalar bosib olish uchun bo'lgan zo'r urinishi Rossiya va Turkiya munosabatlarini keskinlashtirdi va ularni Qrim urushi (1853-1856)ga olib keldi. Zaif Usmoniylar davlati hududida Rossiya mavqiyening kuchayib ketishidan cho'chigan Angliya, Fransiya, Sardiniya kabi Yevropa davlatlari Turkiyaga ittifoqchi sifatida urushga qo'shiladilar. Feodal – krepostnoylik tuzumining inqirozini boshidan kechirayotgan qoloq Rossiya urushda mag'lubiyatga uchrab, og'ir sulh shartlarini qabul qiladi va Yevropa xalqaro hayotidagi hukmron mavqiyeni boy beradi. Qrim urushi rus – turk munosabatlarini yaxshilamadi, balki uni yanada chigallashtirdi. Turkiya Yevropa davlatlarining qo'llab quvvatlashi bilan chor Rossiyasining keyingi da'volarini rad etishda davom etadi.

Rossiyada 1861 yil krepostnoylik tuzumiga barham berilishi va ilg'or burjua islohatlarining o'tkazilishi natijasida mamlakat o'zining iqtisodiy ahvolini hiyla yaxshilashga erishadi. U Qrim urushida boy berilgan imkoniyatlarini tiklash va Bolqonda o'z mavqeyini kuchaytirishga harakat qiladi. Rossiya XIX asr 70 yillarida Turkiyaga qarshi navbatdagi urushni tayyorlaydi. Ammo bu davrga kelib Yevropaning bir qator davlatlarini manfaatlari Bolqonda to'qnash keladi. 1877-1878 yillardagi rus-turk urushi va Berlin kongresslari mazkur ziddiyatlarning naqadar keskinlashganligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, XIX asr ikkinchi yarmida rus-turk munosabatlari xalqaro munosabatlarning muhim masalasini tashkil etgan. Shu nuqtai nazardan olganda, rus – turk munosabatlari tarixini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur mavzu ko'pchilik mutaxassislarning e'tborini o'ziga jalb qilgan. Hususan, akademik Ye.V. Tarle o'zining “Крымская война”, “Европа в эпоху империализма. 1871-1919 г.г.” kabi asarlarida mavzuning bir qator muhim masalalarini yoritib bergan.

Yu.A. Pisarev tahriri ostida chop etilgan “Балканы в конце XIX - начале XX в.” kitobida Bolqon hududining davlatlar tashqi siyosatida tutgan o'rni tahlil etilgan. K.B. Vinogradovning “Мировая политика 60- 80-х годов XIX в.”, I.V. Kosikning “Русская политика в Болгарии”, Ye.K. Vyazemskaya va S.I. Danchenko ham muallifligidagi “Россия и Балканы. Конец XVIII - 1918”, N.Ya. Danilevskiyning “Россия и Европа” nomli asarlarida ham mavzuning turli masalalari umumlashtirilgan.

Rus –turk munosabatlarining rivojlanish dinamikasi 1963 yilda V.A. Zorin va boshqalar tahriri ostida nashrdan chiqqan “История дипломатии”, A.Laktionov tahriri ostida chiqqan “История дипломатии” kabi adabiyotlarda aks etgan.

“Novaya i noveyshaya istoriya” jurnalining so'ngi yillardagi sonlarida K.B. Vinogradov, I.S. Rybachenko va P.P. Cherkasov kabi soha mutaxassislari, Moskva universitetinig habarnomalarida Ye.Yu. Zubareva Qrim urushi tarixi masalalariga bag'ishlangan bir qator maqolalarini chop etib, mavzuga doir yangi ma'lumotlarni muomalaga kiritganlar.

Ushbu malakaviy bitiruv ishida yuqorida ta’kidlangan asarlardan keng foydalanildi. Bitiruv ishi kirish, ikki bob va xulosa qismlaridan iborat bo’lib, uning nihoyasida foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ruyxati keltirilgan.

I. Bob. XIX ASR O’RTALARIDA YEVROPADA XALQARO AHVOL VA QRIM URUSHI (1853-1856)

1.1. “Sharq masalasi”

1848-1849 yillar inilobi 1815 yilda o’rnatilgan reaksion tizimni jiddiy ravishda larzaga soldi. Inqilobni bostirish uchun rus qo’shinlarining Vengriyaga kiritilishi va Olmyus kelishuvidan so’ng Yevropa reaksiyasini tayanchi bo’lgan

chorizmning xalqaro ta'siri o'zining eng yuqori cho'qqisiga yetadi. 1848 yilgi Vengriya intervensiyasidan so'ng Avstriyaning hukmron doiralari chorizmning yordamiga ehtiyoj sezmadilar, balki uning timsolida asosiy raqibini ko'ra boshladilar¹. Avstriya kansleri Shvarsenberg "Avstriya o'zining beoqibatligi bilan dunyoni hayratga soladi hali" deganda Rossiyaning nazarda tutgan edi. Uning ushbu so'zlari Qrim urushi davrida o'zining isbotini topdi. Shunday qilib, Olmyus kelishuvidan so'ng Rossiyaning nafaqat Prussiya bilan, balki Avstriya bilan ham munosabatlari yomonlashib, uning xalqaro miqyosda yakkalanib qolishi yanada kuchaydi. Fransiya prezidenti Lui -Napoleon ham Yevropada 1815 yil chegaralarini o'zgartirishga va Usmoniylar imperiyasida o'zining ta'sirini kuchaytirishga harakat qildi.

Yevropada inqilobiy buhronlar biroz so'nib, Germaniya ittifoqi qayta tiklangach, yevropa siyosati kun taribiga yana " sharq masalasi " chiqdi. Sharq masalasi deganda, ushbu davrda Usmoniylar imperiyasining ahvoli, aholisining, birinchi galda Bolqon xalqlarining turk zulmiga qarshi milliy-ozodlik harakati va shuningdek, buyuk davlatlarning Yaqin Sharqda hukmronlik uchun kurashi nazarda tutilgan.

Sharq inqirozining asosiy sabablarini Yaqin Sharqda hukmronlik uchun bir tomondan Rossiya va ikkinchi tomondan g'arb davlatlari – Angliya va Fransiya o'rtasidagi kurash tashkil etgan. Ushbu davlatlar Yaqin Sharqda agressiv bosqinchilik siyosatini yuritdilar. Yevropa davlatlarining Yaqin Sharqda hukmronlik uchun kurashi Usmoniylar imperiyasida siyosiy va savdo sohasidagi ta'sirini kuchaytirish, uning mulklarini bo'lib olish, milliy zulm ostida ezilgan xalqlarning taqdiri va Qora dengiz bug'ozlari masalalarini o'z ichiga olgan. Davlatlarning Yaqin Sharqda to'qnashuvi turk imperiyasining chuqur ichki inqirozi va xalq ommasi milliy –ozodlik harakatlarining ko'tarilgan davriga to'g'ri keldi.

¹ Виноградов В.Н. Венгерский поход И.Ф. Паскевича 1849 г.: легенда и действительность // Новая и новейшая история. 2000, №5. С. 80.

G'arbda kapitalizmning tez taraqqiy etishi ingliz va fransuz mustamlakachiligini kuchaytirdi. Britaniya hukumati va burjuaziyasi Yevropa qit'asida reaksiyaning g'alabasidan mamnun edi. Ular o'zlarining jahon savdosi va sanoatidagi, mustamlakachilik borasidagi hukmron mavqeyini mustahkamlashga harakat qildilar. Shuningdek, bu davlatlar Usmoniylar imperiyasini o'ziga bo'ysundirish, uning bozorlarini egallash va chor Rossiyasining Yaqin Sharqdagi har qanday ta'siriga barham berishga harakat qildilar.

1848 -1849 yillar inqilobi davrida "sharq masalasi" vaqtincha ikkinchi darajaga surib qo'yildi. Rus diplomatiyasi 1848 yil voqyealaridan Moldaviya va Valaxiyadan iborat Dunay knyazlikliklarida ta'sirini kuchaytirishda foydalanib qoldi. Rus – turk qo'shinlari inqilobiy harakatlarni bostirish maqsadida vaqtincha knyazliklar hududini egallab oldi. 1849 yil aprelda Balto – Liman shahrida rus – turk konvesiyasi imzolandi. Unga ko'ra, knyazlik hukmdorlarini saylash tartibi bekor qilindi va endi sulton nomzodlarni rus podshosining roziligi bilan tayinlaydigan bo'ldi. Ushbu bitim knyazliklar ustidan bir vaqtda ham rus va ham turk nazoratini o'rnatdiki, bu hol Angliya, Fransiya va Avstriya hukumatlarida jiddiy e'tiroz uyg'otdi.

XIX asr 50 – yillari boshlarida buyuk davlatlar Yevropada 1848 yilgacha mavjud bo'lgan xalqaro munosabatlar tizimini mumkin qadar o'zgartirmasdan saqlab qolishga harakat qildilar. Italiya siyosiy jihatdan tarqoqligicha qolmoqda edi va uning oldingi holatga qaytishi uchun Avstriya hukmronligi ostida Germaniya ittifoqini tiklashni taqoza etar edi. Bunga "Yevropa jandarmi" rolini ijro etayotgan chor hukumati shuningdek, yarim feodal Avstriya imperiyasi va kichik nemis davlatlari katta qiziqish uyg'otmoqda edilar. Ular milliy zulm ostida qolgan xalqlarning milliy – ozodlik va birlashtirish harakatlaridan, shu bilan bir vaqtda, Prussiya monarxiyasining Germaniya tepasiga kelishidan ham havfsiraydilar. Kichik nemis davlatlari o'zlarini Prussiya tomonidan yutib yuborilishidan cho'chidi. Angliya va Fransiya hukumatlari ham Prussiyaning kuchayib ketishini istamaydi.

1850 yilda Avstriya va Prussiya o'rtasida Germaniyada hukmronlik uchun urush havfi paydo bo'ldi. Biroq Angliya, Fransiya va Rossiya Prussiyaning da'volariga qarshi chiqdi. 1850 yil noyabrda Olomous (Olmyus) shahrida Rossiyaning Venadagi elchisi rus hukumati nomidan Prussiyaga qattiq talablar quyib, uni "Uniya" dan, Shlezvig va Golshteyndan, shuningdek, Germaniyani o'zi boshchiligidagi birlashtirish rejasidan voz kechishga majbur etgan bitmni imzolotdi.

1851 yil Drezden konferensiyasida barcha german hukumatlarining vakillari Avstriya boshchiligidagi Germaniya ittifoqini qayta tiklashga kelishib oldilar. Tezda (1852) buyuk davlatlar o'rtasida London shartnomasi imzolandi. Unga ko'ra, Shlezvig va Golshteyn Daniya tasarrufida qoldirildi va Prussiya Daniyaning yaxlitligini e'tirof etish majburiyatini oldi.

XIX asr o'rtalarida rus – turk munosabatlari ham murakkab kechdi. Ayniqsa bu jarayonga buyuk davlatlar - Angliya, Fransiya, Avstriya va boshqalarning aralashuvi uni yanada chuqurlashtirib yubordi. Ta'kidlanganidek, g'arb davlatlari o'rtasidagi chuqur qarama - qarshiliklar, birinchi navbatda Angliya va Rossiya o'rtasidagi ixtiloflar XIX asr o'rtalarida raqiblarning harbiy to'qnashuvlari havfini kuchaytirdi.

Rus hukumati pomeshchiklarning eng reaksion doiralariga tayangan holda malakatning qoloqligi va urushga tayyor emasligidan, zaruriy yangilanishlarni tugallash uchun tinchlik va baqarorlik kerakligidan qat'iy nazar Yaqin Sharqda hukmronlik uchun urush boshlashga qaror qildi. Rossiyada krepostnoylik tuzumi allaqachondan boshlab chuqur inqirozni boshdan kechirmoqda edi. Chor hukumati aloqa yo'llarining zaifligi, sanoat va flotning qoloqligi mamlakatni og'ir mag'lubiyatga olib kelishi mumkinligi kabi masalalarga e'tiborsiz qaradi. Bundan tashqari, krepostnik – pomeshchiklar samoderjaviya – krepostniklik rejimini mustahkamlash yo'lini agressiv tashqi siyosatda ko'rmoqda edi.

Bu davrda Usmoniylar imperiyasi bilan bog'liq xalqaro munosabatlar yanada ko'proq murakkablashdi. Yaqin Sharq muammosiga o'z munosabatlarini namoyon qilgan Angliya, Fransiya, Rossiya va Avstriya kabi Yevropa davlatlari orasidan

Angliya va Rossiya davlatlari Usmoniylar imperiyasi taqdiriga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdi.

Angliya va Rossiya o'rtasida nafaqat iqtisodiy, balki chuqur siyosiy ixtiloflar ham bo'lgan. Bu davrda ikkala buyuk davlat ham turli bahonalar bilan hududiy ekspansiyaga urinadi. Angliya erkin savdo uchun bozorlarni kengaytirish va ko'proq yangi xomashyo manbalarini qo'lga kiritishga harakat qiladi.

Shunday qilib, Rossiya Nikolay I davrida hududiy bosqinchilik kurashini yangidan avj oldiradi. Chorizm yangi hududiy istilolarni ichki iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy inqirozni yengish vositasi deb biladi. Bu vaqtda Nikolay I va uning saroy ayonlari nafaqat o'z mamalkatlaridagi inqilobiy harakatlarni, balki Yevropadagi inqiloblarni uzil - kesil yanchib tashlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi.

Angliya va chor Rossiyasi manfaatlari Yaqin, O'rta va Uzoq Sharqda to'qnashdi. Biroq ikkala davlat uchun muhim bo'lgan mintaqalar sifatida Usmoniylar imperiyasi namoyon bo'ldi. Ularning bu raqobatchiligida eng muhim masalani Bosfor va Dardanell bo'g'ozlari tashkil etdi. Angliya urushga "Yevropa ozodligi"ni himoya qilib, "sharaffli sulh" talab qilib kiradi².

Nikolay I hukmronligi davrida Rossiyaning Yevropa davlatlaridan ayniqsa Fransiya bilan munosabatlari yomonlashdi va Qrim urushi arafasida bu keskin namoyon bo'ldi. Nikolay I Usmoniylar imperiyasiga qarshi kurashda Fransiya va Angliyaning Porta tomonidan nizoga aralashishi mumkinligini munosib baholay olmadi³.

Fransiya asrlar davomida Usmoniylar imperiyasi bilan mustahkam siyosiy va savdo aloqalariga ega edi. Biroq 1789-1794 yillardagi inqilob va 1808 yilda Napoleon I ning Aleksandr I bilan Turkiya hisobiga Tilzitdagi kelishuvidan so'ng Fransiya ta'siri bu yerda juda ham zaiflashib ketgan edi. Prezident Lui-Napoleon uni tiklashga harakat qildi.

² Виноградов К.Б., Суртаев П.Б. Королева Виктория, принц-супруг Альберт и Крымская война // Новая и новейшая история. 2004, №...С. 175.

³ Черкасов П.П. На тайном фронте Крымской войны // Новая и новейшая история. 2007, №3. С. 186.

Lui - Napoleonning tashqi siyosiy mulohazalari bo'yicha Rossiya va shaxsan Nikolay I ga munosabatidan tashviqotchilik maqsadlarida “muqaddas joy” (Falastindagi Iso Masih qabri va boshqa ziyoratgohlar nazarda tutilmoqda) haqidagi bahsli masalada uni pisand qilmaslikka harakat qildi. 1850 yil 28 mayda uning topshirig'iga binoan Istambuldagi fransuz elchisi “muqaddas joy”larni Fransiya ixtiyoriga berish va boshqaruvda Fransiya ustunligini tan olish haqidagi talabini bayon qildi⁴.

Sulton Salim I Suriyani ishg'ol qilgandan so'ng Falastin tarkibiga kirgan “muqaddas joylar” turk ma'muriyati qo'l ostiga o'tadi. Shu bilan birgalikda Porta (Porta - turk hukumatining Yevropadagi nomi) xristian cherkovlarining ushbu joylarni o'z ixtiyoriga olish bo'yicha kurashi bilan bog'liqlikdagi muammo paydo bo'ladi.

Fransiya prezidenti Lui – Napoleon va Rossiya imperatori Nikolay I larning “muqaddas joylar”da katolik va pravoslav ruhoniylarining huquqlari borasidagi nizosi Qrim (Sharq) urushining boshlanishiga bahona bo'lib xizmat qildi⁵.

Fransiyaning “muqaddas joylar” masalasidagi da'vosiga Rossiya qarshi chiqdi. Nikolay I buyrug'i bilan kansler Nisselrod Istambuldagi rus elchisi V.P.Titovga katolik cherkovining “muqaddas joylar” ustidan homiylik huquqlarini ta'minlanishiga qarshi rus hukumatining e'tirozini Portaga aytish va 1768-1774 yillardagi rus-turk urushini yakunlagan Kichikqaynarji shartnomasi asosida “muqaddas joylar”ni pravoslav cherkovi ixtiyoriga o'tganligi haqidagi habarni turk hukumatiga bildirishni taklif etdi. Bu masala Turkiya imperiyasiga ta'sir borasida, shuningdek, fransuz va rus diplomatiyasining o'zaro kurashida muhim rol o'ynadi. Nikolay I 1851 yil oktyabrda shaxsiy maktub bilan sulton Salim I ga murojaat qilib, o'zining talablarini bayon etdi. Ushbu talablar asosini pravoslav cherkovi foydasiga status-kvo (mavjud holat)ni saqlash maslasi tashkil etar edi. Porta hukumati ikki o't

⁴ Новичев А.В. История Турции. Новое время (1853-1875). Л., 1978. С. 12.

⁵ Мельникова Л.В. Святые места в центре Восточного вопроса: церковно – политический фактор как одна из причин Крымской войны // Новая и новейшая история. 2008, №2. С. 61-62.

orasida qoldi. Porta “muqaddas joylar”ni katoliklar va pravoslavlar ixtiyoriga teng asnoda berilishini taklif etdi. Biroq bu taklifni fransuz elchisi Lavobetti kabi Titov ham rad etdi⁶.

Rus hukumatining bosimi ostida sulton farmoni 1852 yil 30 yanvarda “muqaddas joylar”ga pravoslav ruhoniylarining egalik huquqini tan oldi. Bu nizo “muqaddas joylar” haqidagi bahs Porta va keng musulmon doiralarida sulton Salim I ga nisbatan qahr-g’azabni keltirib chiqardi. Bu vaqtda Fransiya Portaga bosimni kuchaytirib, pravoslavlar zarariga “muqaddas joylar”ga katolik cherkovining mu’tadil huquqini ilgari surdi. Ular haqidagi bahs qandaydir ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo’lib qolib, shundan so’ng Nikolay I Usmoniylar imperiyasini bo’lib olish rejasini ilgari surdi. U shu maqsadda Angliya bilan yaqinlashishga qaror qildi. Bu da’vo 1844 yildayoq Nikolay I tomonidan ilgari surilgan bo’lib, biroq qirolicha Viktoriya bunga ko’nmagan edi. 1853 yili yanvarda Nikolay I 1844 yilda boshlangan inglizlar bilan muzokaralarni kelishib olish uchun Peterburgdagi ingliz elchisi Gamilton Seymor bilan muzokaralarga kirishdi. Biroq Angliya hukumati Nikolay I rejalarini, xususan, Bosfor bo’g’ozini va Istambulning vaqtinchalik rus hukumati hokimiyati ostiga o’tishi haqidagi taklifni rad etdi. Rossiyaning bu bo’g’ozlarni egallashi Palmerston tipidagi ingliz diplomatlari nuqtai-nazaridan, birinchidan, qudratli rus davlatining Angliyaga hujum davrini boshlanishi, ikkinchidan, bu harakat Turkiyaning to’liq bosib olishga muqaddima bo’lishi, uchinchidan, Turkiyaning zabt etilishi Nikolay I ga Eronni yengib istilo qilish uchun yo’l ochib beradi deb hisoblandi.

⁶ Новичев А.В. История Турции.. С.13.

1.2. Qrim urushi

Angliya bilan olib borilgan uzoq muzokaralar ish bermagach, Nikolay I Turkiyaga dastlab diplomatik, keyinroq harbiy yurish boshlashga qaror qildi⁷. 1853 yil yanvarda sulton elchisi Afifbey Quddusda katolik va pravoslav ruhoniylariga bundan buyon katoliklar ixtiyoridagi nima muqaddas hisoblansa, pravoslavlar ixtiyoridagi ushbu narsalar ham muqaddasligi haqida habar berdilar. Albatta bu fransuz diplomatiyasining rus diplomatiyasi ustidan to'liq g'alabasini anglatar edi. Dengiz qurolli kuchlari vaziri Aleksandr Sergeyevich Menshikov podshoga taklif bildirib, sulton Abdulmajidga qat'iy talablar bilan Istambulga hujum to'g'risida buyruq oldi. O'z navbatida rus hukumati Turkiyada e'tiqod erkinligi tamoyilining himoyachisi bo'lib chiqdi.

Menshikov missiyasi Porta va sultondan quyidagi talablarga erishishi kerak edi: Rossiya imperatorining shaxsiy maktubida sultondan o'z va'dasi ustidan

⁷ Тарле Е.В. Крымская война. В 2т. М., 1959 . Т. 1. С.150.

chiqishi va 1852 yil 30 yanvardagi farmonda belgilangan pravoslav cherkovi huquqlarini amalga oshirish; Vifleyem yerlarida pravoslav cherkovining alohida huquqlarini tiklash uchun maxsus farmon chiqarish, 1852 yil 30 yanvar farmonidan so'ng katolik cherkoviga yon bergan barcha farmonlarni bekor qilish; pravoslav cherkovi huquqlarini kelajakda buzilmasligini kafolatlash shular jumlasidandir.

Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun Menshikov sulton Salim I ga konvensiya yoki senat ko'rinishida ochiq yoki mahfiy aktni tayyorlashni taklif etdi. U yoki bu farmondagi akt shartnoma kuchiga ega bo'lib, pravoslav cherkovining status-kvosini mu'tadil saqlash uchun o'zaro qabul qilingan kelishuv shartlarini kafolatlar edi. Undan tashqari Menshikov sulton Salim I ga mahfiy "mudofaa" ittifoqi tuzishni taklif etishga buyruq oldi. Bunga "fransuz hukumati havfidan Turkiyani himoya qilish uchun" niqob sifatida foydalanish nazarda tutildi. Podsho har qanday holatdagi "qurbonlik" ka tayyor bo'lib, pravoslav cherkovining mu'tadil status – kvosi to'g'risidagi konvesiyasini imzolashdan tashqari Turkiyadan boshqa majburiyat talab qilinmasligini bildirdi⁸. Agar bunga Porta ko'nmasa, Nikolay I ning "marhamati" g'azabga aylanishi va muhokama uchun uch kun vaqt berilishi va bu muddat davomida barcha shaxsiy elchilik tarkibi bilan Menshikovga Istambulda qolishi uqtirildi.

1853 yil 11 fevralda Menshikov Peterburgdan yo'lga chiqdi va 28 fevralda Istanbulga yetib keldi. Menshikovni Istambulda yashayotgan greklar va qisman slavyanlar xursandchilik bilan kutib oldilar. Qonli yakun topishi mumkin bo'lgan murakkablashgan siyosiy vaziyatda diplomatik o'yin boshlandi. Menshikov dastlab, bosh vazir huzurida bo'ldi. Ikkinchi uchrashuv marosim bo'yicha Rossiyaga qarshi va Fransiya tarafdori bo'lgan mashhur tashqi ishlar vaziri Fuod afandi bilan bo'lishi kerak edi. Buyuk vazir Mehmed Ali bu masalada huquqga ega emasligini bayon qildi. Menshikovning harbiy korpus bilan kelishi sultonda vahima uyg'otdi. Bu vaqtda Fuod afandi o'rniga tashqi ishlar vaziri lavozimiga Rifat poshsho tayinlandi.

⁸ Новичев А.В. История Турции... С. 14.

Menshikov bevosita Nikolay I irodasi bilan sultonni tanishtirishi lozim edi. Lekin unga Nikolay I ning 1853 yil 24 yanvarda rasmiylashtirilgan xatini taqdim etdi. Poshho sultonga “Pravoslav cherkovi huquqlarining muqaddas asoslari kafolati” ni saqlashni taklif qildi va rus elchisining boshqa fikri ham bo’lib, agar o’zga bir davlat Turkiyaga havf tug’dirsa, “mustahkam ittifoqchilik” aloqalari o’rnatishga ham imkoniyatlar borligi aytiladi. Sultonga bevosita Fransiyaga qarshi qaratilgan rus-turk ittifoqini tuzish taklif etildi⁹.

Podsho xatining asosiy moddalari bilan to’liq mantiqiy bog’liqlikda Menshikovga taqdim qilingan ikki ta hujjat ham bor edi: bu Turkiya bilan tuzilishi rejalashtirilayotgan konvensiya loyihasi va mahfiy kelishuv loyihasi bo’lib, ularga ko’ra Rossiya Turkiyaga quruqlik va dengiz kuchlarini yordamga yuborish majburiyatini olar edi. “Muhim va mahfiy akt” deb atalgan bu hujjat devon va sultonga muqarrar havf haqida ochiq noma edi.

Menshikov Nikolay ko’rsatmasiga binoan mart oyida uchta notada Portaga shunday majburiyatlarni olishni taklif etdi: birinchidan, pravoslav cherkovining butun huquqlarini kafolatalash nazarda tutilgan Rossiya bilan shartnoma tuzish (status-kvo), ikkinchidan, “Iso qabri” maqbarasiga “sulton qaramog’i” ni tiklash, biroq u Quddusdagi yunon-pravoslav patriarxi nazorati ostida bo’lishi Portadan mustaqil bo’lgan yunon-pravoslav patriarxini rus podshosining roziligi bilan umrbod tayinlash.

Rus hukumatining Turkiyadagi yunon-pravoslav cherkoviga homiylik huquqi uchun da’vosi 10-12 million kishilik pravoslav diniga e’tiqod qiluvchi barcha sulton fuqorolari ustidan protektorat huquqini anglatar edi. Sulton Salim I ga konvensiyaning bu loyihasi taqdim etilgan paytdan Menshikov ketguncha va o’tgan ikki oy davomida Rossiya va Turkiya o’rtasida diplomatik munosabatalar uzulgunga qadar asosiy muammo - bu loyihani rad qilish yoki qabul qilish muammosi atrofida

⁹ Тарле Е.В. Крымская война... С.150.

notinch diplomatik to'polonlar bo'lib o'tdi¹⁰. Rus qo'shinlarining rus-turk chegarasidagi Prutga to'planishidan so'ng buyuk vazir Damad Mehmed Ali Poshsho Istambuldagi Angliya va Fransiya vakillariga yordam haqida iltimos bilan murojaat qildi. Fransuz va ingliz elchilari Redklif va Delakur Portaga o'z hukumati yordamini va'da qildilar va Nikolay I uning elchisi Menshikov talabalarini qat'iy rad etishini maslahat berdilar. 10 mayda Rifat Poshsho rus ultimatumini rad qilganligi haqida nota berdi. Shu bilan birgalikda unda sultonning Rossiya bilan do'stona aloqalarini mustahkamlash va saqlashga bo'lgan urinishi tugaganligi aytili.

Menshikov Rifat poshsho notasiga yangi havfli nota bilan javob berdi. Ulardan birida u Turkiyada "pravoslav grek-rus cherkovi" huquqini kafolatlashda endi imperator hukumati o'z shaxsiy kuchiga tayyanadi deb yozilgan edi. 1853 yil 21 may kuni Menshikov barcha rus elchilari bilan Istambuldan chiqib ketdi. Amalda Rossiya va Turkiya o'rtasida diplomatik aloqalar uzildi.

Menshikov talablarining turk hukumati tomonidan rad etilishi Nikolayni juda ham g'azablantirdi. Nikolay o'zining Polshadagi Varshava knyazligi noibi I.F. Paskevichga yozgan xatida "Agar turklar sakkiz kun muddatda mening so'nggi talabimni bajarmasa, urush boshlayman" deb yozadi. 1853 yil 31 mayda Nesselrod Turkiya tashqi ishlar vaziri Rishod poshshoga bu xatning asosiy mazmuni ifodalangan nota jo'natdi. Nota bir necha hafta davomida rus qo'shinlari imperiya chegarasiga o'tishga buyruq olganligi haqida Portani ogohlantirdi. Nota Portaga maxsus kuryer orqali jo'natildi. Javob uchun esa sakkiz kun muxlat berildi. Lekin bu safar ham Nesselrod ultimatumni qat'iy rad etdi. Portaning ultimatumni rad etganligi haqidagi habar 31 maydan 25 iyungacha Peterburgga yetib keldi. Keyingi kundayoq Nikolay I Bessarabiyada to'plangan qo'shinga Prut daryosidan o'tib, knyazlikni egallash bo'yicha operatsiyani boshlashga buyruq berdi. Buyruq 1 iyunda olinib, 2 iyundayoq uni amalga oshirishga kirishildi. Rus qo'shinlari Prutdan ilgarilab, Moldaviya hududiga kirdi. Rossiya va Turkiya o'rtasidagi butun ixtilof

¹⁰ Новичев А.В. История Турции... С.17.

davomida Nikolay I va uning hukumati a'zolari Rossiyaning Yaqin Sharq siyosatida Yevropa davlatlaridagi jamoatchilik fikrini va Angliya, Fransiya, Avstriya, Prussiya, Portaning siyosatini baholashda qo'pol hatoga yo'l qo'ydi. Xuddi shunday bu safar ham Nikolay I urushning xavfli yo'liga kirdi.

Fransiya va Angliya ham Menshikov ultimatumiga Rossiya uchun havfli bo'lgan javobni qaytardilar. Uning Porta hukumati bilan diplomatik munosabatlarini uzgandan so'ng bu ikki yirik dengiz davlati O'rta yer dengizida joylashgan o'z dengiz eskadralariga Dardanell bo'g'ozi yaqinidagi Bezik buxtasiga jo'natish to'g'risida buyruq berdi. 13 iyunda fransuz, 14 iyunda esa ingliz eskadrasi bu yerga langar tashladi. Nikolay I Angliya va Fransiya hukumatlarining harbiy xarakatlariga nisbatan munosabatini baholashda adashdi. G'arbiy Yevropadagi o'z elchilarining soxta ma'lumotlari va shaxsiy xatosi tufayli Rossiya qiyin vaziyatga tushib qoldi. Rossiya Turkiya bilan yakkama-yakka urushmoqchi edi. Har xolda Angliya va Fransiya hukumatlari o'z eskadralarini Dardanell yaqiniga yuborgan bo'lsada, biroq podshoning knyazlikni egallash fikri haqida habar olgach ham ular rasmiy norozilik bildirmadilar. Ular Rossiya hukumatiga rus qo'shinlarining knyazlikni egallashi Yevropa muvozanatini va Usmoniylar imperiyasi yaxlitligini buzadi deb biladi. 1841 yil konvensiyasini buzish deb qaralishini bildirish bilan chegaralandilar. Amalada bu ikki davlat rus-turk mojarosini keskinlashtirishga urindilar. Ularning birinchi sharti rus qo'shinlarini knyazlikdan chiqib ketishi haqidagi talabi bo'ldi. Bunday talab Porta tomonidan ham e'lon qilindi. Porta rus qo'shinlarining Dunay knyazligini egallashini urushga bahona sifatida baholadi. Nikolay I va uning hukumati knyazliklardan o'z qo'shinini chiqarib ketish talabini rad etdi¹¹.

Kundan-kunga vaziyat murakkablashib bordi. 1853 yil sentyabrda Avstriya taklifi bilan Venada Angliya, Fransiya, Avstriya va Prussiya vakillari tarkibida konferensiya chaqirildi. Tashabbuskor Avstriya bu harakat Bolqondagi milliy-ozodlik kurashining o'sishiga yo'l ochib berishini aytib, nafaqat turk slavyanlari

¹¹ Новичев А.В. История Турции... С. 20.

balki Avstriya zulmi ostidagi barcha slavyan xalqlarining ozodlik kurashi o'sishida Bolqondagi rus qo'shinlarining harakati katta havf tug'dirishini ta'kidladi. Konfrensiya Rossiya hukumatiga Turkiya notasini qabul qildi. Turkiya va Rossiya o'rtasidagi "Kelishuv notasi" mojaroni tinch vositalar bilan hal etishga xizmat qilishi kerak edi. Nota sulton Salim I ning majburiyatini to'liq amalga oshirishi va Kichikqaynarji va Adrianopol shartnomalarida ko'zda tutilgan pravoslav cherkovining imtiyozlari va huquqlarini buzilmasligini tashkil etar edi.

Nikolay I Vena notasini qabul qildi, biroq shu bilan notaning Rossiya bilan bog'liq bo'lmagan hech qanday qo'shimcha shartlarsiz uning alomatlarini sulton rad etsagina qabul qilishini aytdi. Porta bu shartning Turkiya suvereniteti buzilishi vaji ostida nota loyihasini rad etdi. Porta o'z kafolatini taklif etdi, biroq sultonning pravoslav fuqarolari homiysi sifatida har qanday chiqish imkoniyatidan mahrum qildi. Podshoning asosiy talabining yana rad etilishi bu safar knyazliklarni egallashga ko'mak berdi. Portaning ahvoli yanada murakkablashib, Rossiya bilan harbiy to'qnashuv havfi kuchaydi. Endi u Angliya va Fransiya madadiga suyanishni o'yladi. Turkiya Avstriyaning Rossiyaga yordam ko'rsatmasligini bilar edi.

Peterburg kabineti o'z navbatida Porta talablarini rad qildi. 1853 yil 19 setyabrdagi Nesselrod depishasi turk loyihasi Rossiya uchun havfli ekanligi to'g'risida Vena konferensiyasiga ma'lum qildi. Nesselrod konferensiya ishtirokchilari bo'lgan davlatlarga Vena notasini Portaga majburan qabul qildirishni taklif qildi. Lekin bu taklif Angliya va Fransiya tomonidan qat'ian rad etildi. Bu vaqtda rus qo'shinlari Moldaviya va Valaxiyani to'liq egalladi. Bunga javoban ikki ingliz va ikki fransuz harbiy kemalari Bezik buxtasidan chiqib, Dardanellga langar tashladi. Bu bilan Angliya va Fransiya Rossiya bilan urushda Turkiyaga harbiy ko'mak ko'rsatishini yaqqol namoyish qildi. Shu yilning 25-26 sentyabridagi majlisda Porta Rossiyaga qarshi urush e'lon qilishga qaror qildi. Shunday qilib, uzoq va og'ir urush boshlandi. Urushning birinchi davrida janglar Dunay frontida bo'lib o'tdi.

Rus hukumatining rejasida Istambulni egallash asosiy va muhim o'rin tutar edi. Istambulni egallashning ikki usuli bu Bosfor bo'g'oziga Sevastopol va Odessada tayyorlangan desant tushirib, dengizdan bevosita hujum qilish va Moldaviya, Valaxiya, Bolgariya orqali harakatlanib, desantlardan yordam olgan hujumkor armiyani zaruriy muddatda Varnaga tushirish edi.

Bulardan birinchi rejani Menshikov ham ko'llab quvvatladi. Feldmarshal Paskevich Istambulni Prut, Dunay, Bolqon orqali birdaniga egallashga bir oz havf bilan qaradi. Shunday bo'lsada podshoning 1853 yilning yozida Paskevichdan Dunayni egallashni so'raganida u qarshilik bildirmadi. Shu yilning sentyabr oyida feldmarshal Paskevich Turkiya bilan urush haqida ikki rasmiy ma'lumotni jo'natdi. 1853 yil 11 sentyabrda jo'natilgan birinchi rasmiy ma'lumotida rus qo'shinlarini Qora dengizga tushirishga g'arb davlatlari havf tug'dirsa, Bosforga rus desantlarini tashlash imkoniyati kamayadi, shuning uchun dastlabki rus harbiy harakatlari sahnasi Gersovadan Varnaga, Varnadan Shumlagacha, Shumladan Rushkagacha va Silistriyagacha" bo'lgan kvadratda bo'lishi kerakligi uqtirildi. Muvaffaqiyatning garovi sifatida Turkiyaning xristian xalqlari bo'lgan – bolgarlar, serblar va greklarning qo'zg'olonini keltirib chiqarish va ularni qurollantirish va bu borada ular orasida tashviqotchilik ishlarini avj oldirishni Paskeyevich Nikolay I ga maslahat berdi. Gersovaning qamal qilinishi va olinishi, hamda Varnaning qamal qilib olinishi belgilangan harbiy harakatlarning tarkibiy qismi edi.

Dunay kinyazliklariga uyushtiriladigan harbiy harakatlarga qo'mondonlik qilish general-adyutant knyaz Mixail Dimitrevich Gorchakovga yuklandi. Ammo Gorchakovga birlashtirilgan armiya bilan Dunay kompaniyasini muvaffaqiyatli yakunlash imkoniyati yo'q edi. Uning ustiga feldmarshal Paskevich Polshada turgan o'z armiyasining salmoqli qismini rus armiyasiga qo'shishni xoxlamadi. Dunay uchun emas balki keyinchalik Qrim harbiy kompaniyasi uchun ham o'z armiyasining ikkinchi korpusini yuborishni hoxlamadi. Moldaviya milisiyasi ham rus istilochi armiyasi bilan birgalikda qatnashmadi, lekin shunday bo'lsada, rus qo'shinlari Moldaviya va Valaxiyani egalladi. Qrim urushidagi eng asosiy

harakatlar Kavkaz frontida bo'lib o'tdi. Dunay operasiasidan so'ng ham urush harakatlari yana davom etdi.

1854 yil 12 martda Napoleon III “Sharqiy armiya”ni tuzishga buyruq berdi va bu armiyaga marshal Sent-Arnoni qo'mondon etib tayinladi. Faqat iyunda bu armiya harbiy harakatlarini boshladi. Biroz muddat avval birlashgan ingliz – fransuz floti dushman qo'shinini izlab yanvar oyidayok Kostantinopol va Varna o'rtasida uzilmas aloqada bo'lib turib, Qora dengizga qatnab turdilar. 1854 yil 4 martda Menshikov Sevastopoldan graf Geydenga “fransuz va ingliz desantlari qarshiligiga bu yerdagi tayyorgarlik meni qondirishi kerak” deb yozgan edi. Amalda u mart va aprel oylarida ham tayyorgarlik ko'rmadi¹².

1854 yil 2 apreldayoq Odessadan hukumat muassasalarini “Novo Rossiya” ning ichki o'lkalaridan biriga evakuasiya qilish haqida yozishmalar boshlandi. Biroq u aprel va may oylari davomida yozishmalar bosqichidan yuqori chiqmadi. Qora dengizda ittifoqchilar floti paydo bo'lgan vaqtdan Kerch shahriga havf kuchaydi. Bu shaharning ahamiyati juda katta bo'lib, u yerdagi ba'zida mavjud bo'lgan kabataj (ichki kemalar qatnovi) savdo qatnovi Qrim armiyasi va Kavkaz qirg'og'ining shimoliy qismidagi qo'shirlarni ta'minlar edi. Dushmanlar deyarli himoyasiz bo'lgan Kerch shahriga hujum qilishga ahamiyat bermadi. Ular buxtadagi barcha kemalarni egallab oldi. Ittifoqchilarni Kerch emas, balki o'zlari uchun juda foydali bo'lgan Odessani egallash qiziqtirar edi.

8 aprelda 9 ta fransuz kemalari Odessada to'xtadi. Keyingi kun erta tongdan Odessa shahri qamalda ekanligi e'lon qilindi. Keyingi kun 9 ta dushman paroxodi qirg'oqqa yaqinlashib, shaharni bombordimon qilishni boshladi. Iyun va iyul oylaridan ikkala ittifoqchi hukumat o'zining quruqlikdagi qo'shinlarini Turkiya Bolgariyasi hisoblangan Varnaga ko'chirishga qaror qildilar. Armiya dastlab Gallipolga tushirildi. Faqat mayning oxirlarida fransuz diviziyalari Varnaga o'tib olishga muvaffaq bo'ldi. Biroq iyun oyining boshlarida greklar tomonidan

¹² Новичев А.В. История Турции...С. 24.

Turkiyaga havfni ittifoqchilar Afinaga uchta, keyinchalik to'rtta diviziyani o'tkazdilar. General Fore boshchiligidagi bu armiya Varnaga kelib tushdi. Umuman fransuz sharqiy armiyasining bir qismi Gallipol va Istambulda qoldi. Ikkala qo'mondon – marshal Sent-Arno va lord Raglan may oyi boshlaridayoq Kostantinopolda uchrashdilar. Ittifoqchi armiya Varnaga va uning atrofiga to'plangan birinchi kundayoq fransuz lagerlarida, keyinchalik Angliya lagerlarida vabo boshlandi. Epidemiya ko'paygach, Sent Arno Fransiyadan qo'shimcha kuchlarni yuborishni tuhtatish haqida Parijga habar berdi. Epidemiya bilan kurash juda og'ir kechdi. Varnada evakuasiya qilinganlar soni oshdi. 10 avgustda Varnada katta yong'in kelib chiqdi. Alanga butun shaharning savdo qismini qamrab oldi. Yong'in natijasida fransuzlar va inglizlar katta moddiy zahiralardan mahrum bo'ldilar.

Kavkaz haqidagi muammo amalda iyulda hal bo'ldi. Angliya hukumati ruslarni janubiy Kavkazdan surib chiqarishgda Shomil yordamiga qiziqish bildirdi. 1854 yil 25 iyulda Varnaga qaytgan marshal Sent – Arno va lord Raglan Shomilning qarindoshi Noib poshsho boshchiligidagi delegasiyani qabul qildi. Biroq o'zaro aloqalardan Shomilning ittifoqchilaridan ixlosi qaytdi. Ittifoqchilarning Shomil kuchlari bilan hamkorlik qilish loyihasi amalga oshmadi. Endi ittifoqchilar Qrimga hujum qilish rejasi ustida bosh qotira boshladilar. Uzoq tortishuvlardan so'ng 1854 yil avgust oyi o'rtalarida Sent - Arno Varnoda majlis chaqirdi. Marshal Set – Arno Varno va Bolgariya qirg'oqlarida uzoq turib qolish mumkin emasligi haqida bayonot berdi.

Marshal bevosita vabo bilan bog'liq holda shunday fikrga kelganligini aytib o'tdi. Faqat Qrimga hujum va urushning Rossiya hududiga ko'chirilishi jiddiy muvaffaqiyat keltirishi mumkinligi qayd etib o'tildi. Majlisda bahs uzoq kechdi. Turklar allaqachon o'z himoyachilaridan nimagadir chetga surilib qolgan edi. Qayd etib o'tganimizdek, turklar va uning g'arbiy “himoyachilari” asosan inglizlar Qrimga hujum masalasida yig'ilishda nima haqida so'z ketayotganini juda yaxshi bilishadi. Aynan mana shunday maqsad bilan ruslardan “mudofaa” qilishi

kerak bo'lgan turk o'ljasini Angliya qo'liga o'tishiga hyech bir ingliz harbiylari shubhalanmas edilar. "Sevastopolni ololmasligimiz mumkin, har holda Istambul bizniki bo'ladi" degan edi inglizlar. Sevastopol qamali boshlangan paytda Sent-Arno o'z nutqida Qrimga zarba Rossiyaga zarba uning Sevastopoldagi yuragini jarohatlashini ruslar yaxshi biladi degandi¹³.

Shunday qilib, Qrimga hujum tayyorgarligi qizg'in tusga kira boshladi. Ittifoqchi davlatlar shu usul bilan ruslarning Dunay knyazliklaridan chiqib ketishga majbur qilishni rejalashtirdi. 1854 yil 5 sentyabrda fransuz eskadirasi balchiqda langar tashladi. Ingliz eskadirasi unga bir qancha vaqtdan keyin kelib qo'shildi. Yirik armada juda sekin harakat qilib Yevpatoriyaga yo'nalish oldi. Qrim qirg'oqlarida suzib, Sent-Arno aynan qayerga qo'shin tushirishni aniq bilmasdi. Dastlab u qulay punkt sifatida Kagani tanladi, biroq u yerda ruslarning mustahkam joylashib olganligi haqida habar topadi. 8 sentyabr kuni Set-Arno o'z kemasida majlis o'tkazdi. Tushish uchun qulay joy haqidagi ma'lumotni olish uchun komissiyani jo'natishga qaror qilindi. 3 kundan so'ng razvetka komissiyasi eskadriaga qaytib yig'gan ma'lumotlarini Sent-Arnoga yetkazdi. Ular butun Xersones yarim oroli qirg'oqlarini taftish qilib, Sevastopol haqida ma'lumot yig'dilar. Razvedkachilar ruslarni ittifoqchi qo'shinlar Kachi va Almada kutayotganligini biroq katta mudofaa kuchiga ega emasligini aytadilar. Ular tushish uchun qulay joy sifatida 45⁰ shimoliy kenglikda joylashgan "eski fort"(old ford) va Yevpatoriya shahri desantlar uchun birinchi muhim tayanch punkti bo'lishi kerak edi.

1854 yil 18 sentyabrda flot Yevpatoriyaga qarab yo'l oladi. U yerda hyech qanaqa garnizon yo'qligi va shahar himoyasiz qoldirilganligi ma'lum bo'ladi. Ular Alma va Yevpatoriya o'rtasidagi Eski fortga tushadilar. Shu kuni Yevpatoriyani ikki ming turk, bir fransuz va bir ingliz bataloni egalladi. 19 sentyabrda marshal Sent-Arno fransuz armiyasiga to'g'ri Sevastopolga yurish qilishga buyruq beradi. Rus

¹³ История дипломатии. Составитель. А.Лактионов. М., 2009. С. 477.

qo'shinlarining Almadagi chekinishidan so'ng Sevastopol himoyasi haqida dahshatli muammo yuzaga keldi. Qora dengiz floti shtab qo'mondoni va Sevastopolda joylashgan barcha qo'shinlarning amaldagi boshlig'i V.A.Kornilov Almadan keyingi voqyealarda shubhasiz birinchi o'rinda harakat qildi. Sevastopolning himoyasida admiral Naximov, general Kornilov va mashhur rus ofiserlari qo'mondonligidagi dengizchi askarlar shahar aholisi 349 kun davomida dushmanning 120 minglik qo'shini va harbiy texnikasiga qarshi kurash olib bordi. Sevastopol qamali juda uzoq kechdi. Urush taqdirini hal qilish uchun ittifoqchilar Avstriya va Sardiniyani o'zlari tarafiga tortishga muvaffaq bo'lsada urush cho'zilib ketdi. Bu vaqtgacha Kavkaz frontida shiddatli janglar bo'lib o'tdi. Kavkaz fronti Turkiya va uning ittifoqchilari uchun ayniqsa Angliya, shu jumladan, Rossiya uchun muhim edi. Har holda uning roli Dunay va Qrim frontlaridek urushdan chiqish uchun katta ahamiyat kasb etmasada, bu yerda bo'lib o'tgan yirik va shiddatli janglar urush harakatlari rejasi Istambulda Angliya va Fransiya elchilari bilan kelishilgan bo'lib unda Rossiyaning raqiblari o'zining asosiy maqsadlarini ifodalagan edi: Turkiya Rossiyadan Kavkaz ortini tortib olish, Angliya esa allaqachon Kavkazga bo'yicha o'z manfaatlarini bildirgan va Rossiyaning Kavkazdagi yerlaridan mahrum qilishni rejalashtirgan edi.

Harbiy harakatlar hududiga turklar tomonidan Armanistonning g'arbiy chegara qismi va Ajariya, ruslar tomonidan Yerevan guberniyasi va Gruziya kirgan edi. Qora dengizning Kavkaz qirg'oqlari va uning markazi Batumining strategik ahamiyati kuchli edi. Chunki u yerdan turib Tiflisga eng yaqin yo'l mavjud edi.

Kavkaz frontidagi birinchi harbiy harakatlarni turklar ochib berdilar, turk qo'mondonligi Batumi yo'lida joylashgan rus chegara posti ya'ni, Avliyo Nikolay postiga kutilmaganda hujum bilan o'z harakatlarini boshladi. 1854 yil 24 oktyabr kechasi bir qancha turk korpusining muntazam piyoda batalonlari va boshi buzuqlarning nomuntazam otryadlari Batumi postiga hujumga tashlandi. Turklarning

umumiy soni yetti ming kishiga yetdi, biroq kuchlar teng emasligi tufayli fort turklar tomonidan bosib olindi¹⁴.

Turk Ardagon korpusi Avliyo Nikolay posti bosib olingandan so'ng Axalsikni bosib olishga kirishdi. Lekin u muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Turklarning Aleksandrapolni olish uchun bo'lgan hujumi ham muvaffaqiyatsiz chiqdi. Bu jang Bayandur yaqinida sodir bo'lgan edi. Axalsikni zabt yetish uchun turk qumondonligi katta harbiy kuchlar ishtiroki bilan keng operatsiya rejasini o'ylay boshladi. Ardagandan bu hududga Ali poshsho qo'mondonligi ostidagi korpus tashlandi. Ali poshsho korpusga general- leytenant Andronnekov qo'mondonligi ostidagi qism qarshi turdi. Jang 1854 yil 26 noyabr kuni bo'lib o'tdi. Jangda rus qo'shinlari g'alaba qozondi. Sinop buxtasi va Bashkadiklardagi g'alabalardan sung Angliya va Fransiya tashvishga solib quydi. Chunki Turkiyaning mag'lubiyatga uchrashi ularning Yaqin Sharqdagi manfaatlarining amalga oshishiga xalaqit berar edi. Qrim va Kavkaz ortidagi harbiy harakatlarning borishida Sevastopol qamali cho'zilib ketgach Umar poshsho Onaduli armiyasini kuchaytirish uchun Kavkaz frontiga o'z korpusini tashlashga erishdi. Biroq ingliz qo'shinlari qo'mondonlari buni rad etdi. 1854 yil avgust oyida harbiy harakatlar markazining Qrimga kuchganidan ssng ittifoqchilarning Sevastopolni qamal qilishi Rossiyaning harbiy-iqtisodiy va ichki-siyosiy ahvolini yomonlashtirib yubordi. Bu vaqtda Avstriya, Angliya va Fransiya bilan ittifoqchilik shartnomasini imzolab, ruslarga qarshi kaolisiyaga rasman qo'shildi. Shartnomada Rossiya 1855 yilgacha ittifoqchilar talablariga yon bermasa, Avstiryaning urushga kirishi nazarda tutilgan edi. Shu yil 20 yanvarda Rossiya raqiblari qatoriga Sardiniya ham qo'shildi. Bu esa Rossiyaning ahvolini og'irlashtirdi. Oxir oqibatda 1855 yil 9 sentyabrda ittifoqchi qo'shinlar deyarli xarobaga aylangan Sevastopolga kirishga erishdi. Biroq ittifoqchilar katta yo'qotishlar (butun kompaniya davomida 73 ming kishi qurbon berilishi) evaziga Sevastopolni oldilar. Bu vaqtda rus qo'shinlari Kavkaz frontida sulh to'g'risida

¹⁴ История дипломатии. Сост. А.Лактионов... С. 479.

kelishuvlar vaqtiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan qator yirik g'alabalarga ega bo'ldilar. 1855 yil iyul oyida rus armiyasi Boyazid shahrini egalladi, keyinchalik Suxumi rayonida turklarning 40 ming kishilik qo'shinining desant operatsiyasini barbod qildi¹⁵.

Ruslarning eng muhim g'alabasi Karsda bo'ldi. Karsni egallash harakatiga N.N. Muravyov boshchilik qildi. U iyun oyining boshlarida Karsga bevosita hujum qilgan vaqtda ixtiyorida hammasi bo'lib 21200 piyoda, 3000 otliq askar va 400 ta milisiya bor edi. Kars qal'asining atrofi to'liq blokada qilindi. Karsga oziq ovqat zahiralarini keltirish cheklangach, askarlarning ahvoli og'irlashdi. 1855 yil 17 sentyabrda Karsga shturm boshlandi. Jang uch soatga yaqin davom etdi. Turklarning qarshi hujumi tufayli u muvaffaqiyatli chiqmadi. 20 oktyabrda Mingrelidagi Ingrus daryosi bo'yidagi jangda knyaz Bagration Muxranskiy qo'shini turk qo'shinlari qo'mondoni Umar poshshodan mag'lub bo'ldi. Umar poshsho g'alabadan keyin ruslarni Karsdan siqib chiqarishga harakat qiladi. Turk qo'mondoning bu g'alaba Muravyovni cho'chitib qo'ydi degan mulohazasi noto'g'ri edi. Muravyov esa aksincha Karsni qamal qilishni davom ettirayotgan edi. Umar poshsho harakatlariga to'sqinlik qilish uchun Kars atrofining qamali xalqasi kundan-kunga qisqarib bordi. Vilyams garnizon qo'mondoni Vassif poshsho bilan maslahatlashib, bundan keyin Karsni himoya qilish imkoniyati yo'qligini aytdi. 12 noyabrda Kars istehkomida oq bayroq ko'tarildi. 14 noyabrda ikkala tomon o'rtasida bitim imzolandi. Shunday qilib, Kars qal'asi ruslar ixtiyoriga o'tdi. Mingiriyadagi bosqinchilik operatsiyasi turklarning yana bir mag'lubiyati bilan tugadi.

Umar poshsho 1856 yil bahorida Tiflisga hujum boshladi. Rus qo'shinlari gruzin yollanma askarlari bilan birgalikda turklarga qaxshatqich zarba berdi. Bu Turkiya uchun Kavkaz frontidagi uchinchi va oxirgi kompaniya bo'ldi. Zaiflashib qolgan Turkiya uchun Yevropa frontlaridek Osiyo frontlarida ham harbiy harakatlar

¹⁵ История дипломатии. Сост. А.Лактионов... С. 480.

tugadi. Unga faqat sulh kerak bo'lib qoldi¹⁶. Sulhga Rossiya ham favqulotda ehtiyoj sezmoqda edi. Kavkaz frontidagi g'alabalariga qaramasdan, Sevastopolning olinishidan so'ng shu narsa ma'lum bo'lib qoldiki, urushning davom ettirilishi Rossiya uchun og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin edi. Uning feodal-krepostnoy tuzumi armiyasini pul va moddiy resurslar bilan ta'minlash uchun yetarli kuchga ega emas edi. Bu vaqtda ruslarga qarshi kaolisiya ishtirokchilari o'rtasida urushni davom ettirish to'g'risida muammo bo'yicha jiddiy xilma-xil fikrlar yuzaga keldi. Angliya bu sulhni xoxlamadi. Fransiya va Avstriyada boshqacha kayfiyat bor edi. Napoleon III va fransuz hukmron doiralari urushni davom ettirilishi fransuz armiyasiga og'irlik qilishi va Fransiya og'ir ahvolga tushib, uni zaiflashib qolishi va Angliyaning Yevropada (Bolqon ham qo'shilib) va Yaqin Sharq pozitsiyasini kuchayib ketishini yaxshi tushunar edi. Avstriya esa Bolqondagi Rossiyaning pozitsiyasini zaiflashtirishni va uning Dunay quyilishidagi hukmronligiga barham berishni o'ylar edi. Biroq Avstriya ham Fransiya deb Angliyaning butun O'rta Yer dengizida to'liq hukmron bo'lishini xoxlamas edi. Avstriya Rossiyaning sulhga ehtiyoji kattaligini hisobga olib, besh bo'limdan iborat shartni ishlab chiqdi va Rossiya ularni bajarishga majbur bo'ldi. Bu bo'limlar quyidagilardan iborat edi: Dunay knyazliklari va Dunayga, Qora dengizga, Portaning xristian fuqarolariga va so'ngisi esa asosiy shartga tegishli edi.

1.3. Parij tinchlik kongressi va xalqaro munosabatlar

¹⁶ Тарле Е.В. Крымская война. Т. 2. С.124.

Bir qancha mulohazalarda Aleksandr II ning tinchlik muzokaralarini boshlash uchun dastlabki zaruriy shartlarni qabul qilishiga yuqorida keltirilgan dalillar yetarli edi. Vazifa 1855 yil kuz faslida rus qo'shinlarining Karsni olganidan keyin qo'yilgan edi. Rossiyaning Venadagi elchisi Gorchakov Vena moliyachisi Sinudan graf Mornening Rossiya bilan sulh muzokaralarini boshlash haqidagi hohishini bilib oladi. Xursand bo'lgan Gorchakov Monening Tyurl saroyida juda katta ta'sirga egaligini bilib, shu zahoti Rossiyaning sulhga to'liq tayyor ekanligi haqida habar beradi. Gorchakov Mornening e'tiborini Fransiya va Rossiya o'rtasida do'stona munosabatlarni to'liq tiklashga qaratdi. Biroq bu harakatlar samara bermadi. Kansler Nesselrod muzokaralarni Morne bilan emas fransuz imperiyasi tashqi ishlar vaziri graf Valeyevskiy bilan olib borish kerakligini uqtirdi. Valeyevskiyning fikri Napoleon III uchun katta ta'sirga ega edi. O'rtada diplomatik o'yin boshlandi. Bu vaqtda Napoleon III Avstriyaga jiddiy ta'sir ko'rsatib, Avstriyani Rossiyaga ultimatum qo'yishga undadi. Bu bilan Rossiyani sulh tuzishga majbur qilib, u amalda bajarilmasa Avstriya unga qarshi urush e'lon qilishiga olib kelar edi. Bu fransuz imperatori diplomatiyasi usulida to'liq bajarildi. Frans-Iosif bir qarorga keldi. Peterburgdagi Avstriya elchisi Esterhazi Nesselrodga ultimatum talabini yubordi: "Agar Rossiya sulhning dastlabki sharti ko'rinishidagi besh bo'limni qabul qilishga roziligini bildirmasa Avstriya hukumati urush boshlashga majbur bo'ladi" deyildi. Rossiya javobini olish uchun qisqa vaqt 1856 yil 19 yanvar belgilandi. Shunday ko'rinishda bo'limlardan tashqari Qora dengiz betarafligi Rossiyaning Moldaviya va Valaxiya ustidan alohida protektorat huquqidan voz kechishi, Dunay bo'ylab erkin suzish (Bessarabiyaning yo'qotilgan qismi bilan birlashgan) Turkiyada yashayotgan xristianlar va xristian cherkoviga barcha buyuk davlatlarning jamoaviy xomiyligiga Rossiyaning roziligi xaqidagi talabi, hamda besh bo'limga uning roziligi kabi shartlar Rossiya uchun juda og'ir edi.

Rossiya juda qiyin ahvolga qoldi. Urushni davom ettirishga imkoniyati bor bo'lsada lekin g'alabaga ishonch yo'q edi. 1855 yil 20 dekabr da Aleksandr II qishqi saroyga kansler Nesselrod, Orlov, graf Pavel Kiselev, knyaz Vorosovlarni chaqirdi.

Avstriya dastlabki shart sifatida keskin talab qilingan besh bo'limni qabul qilsagina tinchlik muzokaralarini boshlashi haqida habar berildi. Ular orasida bu bo'limlarni qabul qilish yoki qabul qilmaslik masalasi muhokama qilindi. Uzoq muhokamadan keyin Rossiyaning to'rtta bo'linga roziligi va so'nggisi rad etildi. 1855 yil 30 dekabrda Gorchakov Venaga graf Buolaga ushbu javobni aytdi. Lekin Avstriya hukumati beshinchi talabni ham bajarilishini Rossiyadan talab qildi¹⁷.

Aleksandr II 1856 yil 3 yanvarda yana qishki saroyda knyaz Voronsov, graf Orlov, Keselov, harbiy vazir knyaz Dolgorukov, buyuk knyaz Konstantin, graf Nesselrod va Meyendorf ishtirokida majlis chaqirdi. Bu majlisda Avstriyaning besh bo'limni ham qabul qilish kerakligi haqidagi talabi muhokama qilindi. Agar rus hukumati tez kunda o'z roziligini bildirmasa yoki uni rad etsa Avstriya elchisi Estergazi mamlakatlar o'rtasidagi diplomatik munosabatlarni uzish talabini qo'yganligini aytdi. Majlisda Nesselrod Avstriya taklifini qabul qilishni qat'iy yoqlab chiqdi. U Rossiya yana urushga kirsa unga qarshi turgan dushmanlarning soni ortishini va g'alabaga imkoniyat qolmasligini ta'kidladi. Voronsov ham urushni davom ettirishga hyech qanday imkoniyat yo'qligini uqtirdi. Meyendorf va Keselev "Urush bizni muqarrar inqirozga olib keladi" deb o'z fikrlarini bildirdilar. Saroydagi majlisi jamiyatning keng doiralarida shu zahoti ma'lum bo'ldi. Slavyanchilar bu habardan juda ham g'azablandilar. Ular nafaqat Nesselerodni, balki hukumatni boshqarayotgan barcha saroy aristokratlarini aybdor deb hisobladilar. Aleksandr II va uning saroy ayonlarining Avstriya talablariga ko'nishi katta sharmandalik deya qabul qilindi.

1856 yil 21 fevral kuni graf Orlov saroy xizmatchilari bilan Parijga keldi. Uni Tyurl saroyida tantanali kutib oldilar. Orlov Aleksandr II ning "adolatli va mustahkam sulh" ni hohlashini va Rossiya hamda Fransiya o'rtasida yuzaga kelgan maylni mustaxkamlashga urinishini bayon qildi. Napoleon III ham bunga roziligini aytdi.

¹⁷ История дипломатии. Сост. А.Лактионов... С. 481.

Parij kongressining birinchi majlisi 1856 yil 25 fevralda bo'lib o'tdi. Kirish nutqini boshlagan majlisning kelgusi muvaffakiyatiga qattiq ishonchni aks ettirgan o'ta murosasiz va bir ovozdan kengash raisi etib saylangan graf Valeyevskiy so'zladi. Plenum graf Orlov xoxishiga muvofik hych qanday muhim traktat ishlab chiqarilmasdan 1856 yil 1 fevralda Venada tuzilgan besh bo'limga Rossiyaning roziligi haqidagi protokol qabul qilinishiga qaror qildi¹⁸.

Keyinchalik harbiy harakatlarni to'xtatish va sulh haqida 4 haftalik muddat e'lon qilinishi haqida qaror qabul qilindi. Orlov faqat Rossiya emas yetakchi davlatlarni ham o'z tashabbusi bilan sulhga taklif qilinishlarini protokolga kiritilishini iltimos qildi. Yarashuv sulhi faqat quruqlik armiyasiga tegishli bo'lib, u flotga tegishli emas edi. Boshqacha aytganda, Angliya ham Fransiya ham rus qirg'oqlari blokadasidan darhol voz kechishni istamadilar. Biroq Orlov xoxishi bilan eskadra qo'mondonlariga Rossiya qirg'oqlariga qarshi bosqinchilik harakatlaridan tiyilish haqida zudlik bilan buyruq jo'natildi. Graf Orlov taklifi bo'yicha yana bir karra kongres sulh shartnomasini uzi-kesil ishlab chiqarishga zudlik bilan kirishish haqida qaror qabul qildi.

Kongressning ikkinchi majlisi 1856 yil 28 fevralda bo'lib o'tdi. Undagi fikr almashinuvlar belgilangan qator umumiy muhokamalar dastlabki xarakterga ega bo'ldi. Orlov Qora dengizda qurolli kuchlar soni haqidagi masala Rossiya va Turkiya o'rtasidagi ikki tomonlama kelishuv bo'yicha hal qilinishiga plenum roziligini olishga muvaffaq bo'ldi. Graf Orlov Nesselrodga jo'natgan habarida bu qadam jarayonning bunday ko'rinishi Rossiya uchun foydali ekanligini ta'kidladi. Bu majlisda Orlov Valeyevskiy yordami bilan Dunay knyazliklariga tegishli bo'lgan masalarni faqat plenumda hal etilishiga va uzul-kesil qarorni tayyorlash esa asosiy komissiyaga topshirilishi, uning kongress tugagandan keyin kuchga kirishi va o'z natijasini davlatlar tasdig'iga taqdim etish haqida kongress qarorini chiqarishga muvaffaq bo'ldi. Orlov bu ikkinchi majlisda Dunay knyazliklari haqidagi masalani

¹⁸ История дипломатии. Сост. А.Лактионов... С. 482.

hal etishning bunday usulini amalga oshirishda plenumning roziligini olishga erishdi. Bu majlisda Turkiyaning xristian aholisi va xristian cherkovi haqidagi muammo muhokama qilindi. Buyuk vazir Ali poshsho sultonning butun xristian diniga e'tiqod qiluvchi fuqarolarning to'liq erkinligini ta'minlovchi xatti – sharif chiqarganini kongressga bayon qildi. Bunga faqat Orlov norozilik bildirdi. U Turkiyadagi xristian cherkovlari to'g'risida kongressning muhim qarorlari bo'lishini, Turkiyada sultonning diniy erkinlikni ta'minlash irodasidan tashqari Turkiya uchun majburiy qarori bo'lishini talab qildi. Biroq Orlov bunda muvaffaqiyat qozona olmadi. Kongressning 3 plenumi 1856 yil 1 mart kuni o'tkazildi. Majlisda uch tomon Rossiya, Angliya-Avstriya diplomatik hamkorligi va Napoleon III harakat qildi. 1 mart majlisida dastlab Aland orollari haqidagi masala qo'yildi va u tez hal etildi. Orlov Rossiyaning bundan buyon Aland orollarida mustahkamlanmasligiga va u yerda hech qanday dengiz yoki harbiy muassasalari tuzilmasligini e'lon qildi. Biroq Orlov Aland haqidagi shartnomani faqat Rossiya, Fransiya va Angliya o'rtasida tuzilishini talab qildi. 1 mart majlisining keyingi masalasi “Qora dengiz sharqiy qirg'oqlari hududlari” masalasi bo'ldi. Turkiya vakili Ali poshsho Turkiya va Rossiya o'rtasida “chegaralarni o'zgartirish” haqidagi muammoni muhokama qilishni taklif etdi. Rossiya vakili bunga qarshi turdi. Graf Valeyevskiy bu sulh tuzilgandan so'ng masalani hal etish “aralash komissiya” ga yuklatilishini aytdi. Rus vakili Orlov Karsni Turkiyaga qaytarishga rozi bo'ldi¹⁹. Keyingi to'rtinchi majlis 1856 yil 4 martda bo'lib o'tdi. Dastlab Rossiya va Turkiya o'rtasida chegaralarni o'zgartirish uchun komissiya haqida masala ko'tarildi. Komissiya tarkibiga ikkita turk vakili, ikkita rus, bir ingliz va bir fransuz vakillari kiritilishi o'z ishlarini sakkiz oy davomida yakunlashi kerakligi haqida qaror qildi. Keyingisini graf Valeyevskiy “Qora dengiz betarafligi” haqidagi masala bilan o'zgartirdi. Valeyevskiy bu to'g'risida shunday qaror chiqardi. U ikki bo'limdan iborat edi: birinchi bo'lim Qora dengizning betarafligini, savdo kemalari uchun har

¹⁹ Тарле Е.В. Крымская война. Т. 2. С.124.

doim ochiqqligini va harbiy kemalar uchun yopiqqligi, unda so'zish faqat qat'iy qoidalar asosida belgilandi. Ikkinchi bo'limda harbiy dengiz arsenalini saqlanishi keraksiz va maqsadsiz deb topilib, shunga muvofiq sulton bu qirg'oqlarda hech qanda harbiy dengiz arsenalini saqlamasligi va kiritmasligi haqida majburiyat olishini ta'kidladi.

Kongressni oltinchi majlisi sakkizinchi mart kuni bo'lib o'tdi. Bu majlisda Bessarabiyaning yangi chegaralari to'g'risidagi juda qaltis masala, boshqacha aytganda, Rossiyaning Moldaviya foydasiga hududiy yon berishlari haqidagi masala ko'rildi. Graf Valeyevskiy taklif etgan mo'tadil qaror ustun chiqdi. Graf Buol Avstriya nomidan norozilik bildirib, Rossiyaning fikridan qaytganligini g'azab bilan aytdi. Orlov va Buolning qizg'in bahslari avj oldi. Oxir oqibat Rossiyaning hududiy yon berishlari qisqartirildi. Endigi masala Dunay knyazliklarining bo'lajak tashkilotlari haqida bo'ldi. Valeskiy va Orlov Moldaviya va Valaxiyani birlashtirish va yagona davlat tuzish uchun fikr bildirdilar. Buol moldavanlar va valaxlarning alohida xalqlar ekanligini, o'larni ni mutloqa qo'shib bo'lmasligini aytib o'tdi. Masala keyingi majlisda hal etilishi belgilandi. 10 mart kunidagi majlisda yana Bessarabiya chegaralari haqidagi muammo ko'rib chiqildi va Rossiya uchun juda foydali bo'lgan chegaralar belgilandi. Yettinchi va sakkizinchi majlislarda Rossiya va Turkiyaning Qora dengizda katta bo'lmagan harbiy kemalarni saqlash to'g'risidagi bitim aniqlashtirilib, Bessarabiyaning ajratgan yangi chegaralarini qat'iy ko'rinishda belgilash hal etildi. Kongress oxiriga yetib boshladi. 10 martdagi majlisda tomonlar kelishuvchan kayfiyatda turdilar. Biroq keyingi majlislarda Avstriya vakillari – graf Buol va Gyubnor Moldaviya va Valaxiyani birlashtirish real voqeyelikka to'g'ri kelmaydi deb turib oldilar.

12 martdagi majlisda graf Valeyevskiy Dunay knyazliklari haqidagi masalani kun tartibiga qo'ymadi va muhokama Dunay bo'ylab suzish haqida kongress qabul qilgan bitim shartlarini aniqlashtirishga yo'naltirildi. Biroq Buol "Yuqori Dunayga" tegishli bo'lgan nisbiy barcha muammolarni davlatlar vakillaridan iborat vakolatli komissiyani tan olishdan bosh tortdi. Bu yuqori, o'rta va quyi Dunay haqida

nihoyasiz munozaralarni keltirib chiqarishi va Avstriya uchun muhim huquqlar va imtiyozlar haqidagi masalaga olib kelishi kerak edi. Biroq Valeyevskiy va Buol tomonidan boshlangan majlisni qasddan buzish harakatini ustomonlik bilan to'htatib qo'ydi. Kongress Avstriyani knyazliklarni "vaqtinchalik okupasiya" sini taqiqlashga majbur qilmadi. Avstriya vakili Buol Moldaviya va Valaxiya ko'rinishida Napoleon III ning marhamati va tuhfasini Avstriya uchun olish umididan voz kechmadi. Biroq kongress raisi 10 mart kuni bo'ladigan majlisda knyazliklar haqida masala muhokamaga qo'yiladigan bo'ldi. U Napoleon III ning 20 mart kuni kongressni tugatishni hoxlayotganligini bilib qoldi. Buol Napoleon III ning knyazliklar haqidagi masalani batafsil qarab chiqishni istamasligini bilmas edi. Napoleon III Orlov bilan mahfiy suhbatida bu haqda bir to'xtamga kelgan edi. Asoiy maqsadi Moldaviya va Valaxiyani Avstriyaga bermaslik edi. Faqat 10 martda kongress inglizlarning qattiq qarshiligiga qaramasdan prus vakilini ham kiritdi. Orlov va Aleksandr II Prussiyaning kiritilishini o'zlarining katta g'alabasi deb hisobladi. Amalda Rossiya uchun Prussiyaning kongressda ishtiroki katta ahamiyatga ega emas edi. 13 martda Orlov graf Valeyevskiyga Dunay knyazliklari iltimos bilan murojaat qildi. Birinchi masala Dunayning chap qirg'og'idagi chegaralanishga tegishli edi. Graf Orlov bu masalani Dunay bo'ylab savdo kemalarining erkin qatnovi haqidagi masala bilan bog'lamoqchi bo'ldi. Imperator Napoleon III rus delegasiyasi taklifini qo'llab-quvvatladi va uning muvaffaqiyatini ta'minlashini aytdi. Ikkinchi masala, Rossiya va Turkiyaning Qora dengizdagi harbiy kuchlariga tegishli edi²⁰. Uchinchi masala Aland orollari haqidagi konvensiya bo'lib, Orlov o'z taklifini to'liq himoya qilishga erisha olmadi. Oxirgi, to'rtinchi masala - sulton Salimning xristian fuqarolarini diniy erkinligini ta'minlash haqida bo'lib, u yechimini topdi. Shunday qilib, 14 martdagi majlisda kongress raisi graf Valeyevskiy tashabbusi bilan plenum qarorlarini keyingi vazifalar uchun majburiy yo'riqlarga xizmat qilishi ilgari surildi. Qaror Avstriya oldiga yengib bo'lmas

²⁰ Тарле Е.В... Крымская война. Т. 2.С. 539.

qiyinchiliklarni ko'ndalang qilib qo'ydi. Buolning vaqtinchalik okupasiya davrida hyech bo'lmasa Avstriya haokimiyatini joriy qilishga bo'lgan umidlari barbod bo'ldi. Majlis knyazliklarni quyidagi holatda bo'lishga qaror qildi. "Ular mudofaa va imtiyozlardan foydalanishni davom ettirib, Porta mustaqilligi va Yevropa kafolati ostida ularga egalik qiladilar". Komissiya knyazliklarning hozirgi ahvoli haqida habardor qilishni buyurdi. Sulton Salim esa zudlik bilan ikkala provinsiyada "Jamiyatning barcha toifalari manfaatlarini" ni ifodalagan vakillarni tuzishni taklif qildi. Bu majlis (Devonlar-biri Moldaviyada boshqasi Valaxiyada) tuzilayotgan yangi davlatning keyingi muassasalari haqidagi o'z istaklarini komissiya oldida ifoda etar edi. Kongressdagi barcha qiyinchiliklar sulton Salimning xristian aholisini diniy erkinligi to'g'risidagi masala bilan bog'liq holda kechdi. Sulton Abdulmajid turk yerlarida xristian cherkovining to'liq ibodat erkinligini ta'minlash uchun xattisharif chiqardi. Pravoslav aholisining ahvoli to'g'risidagi masala bo'yicha o'z-o'zidan savollarga o'rin qolmadi²¹.

Kongressning tahririy qo'mitasi mart oyining o'rtalaridayoq tinchlik shartnomasini uzil-kesil matnini ishlab chiqishda qiyinchilikka uchradi. Har bir modda ustida u uzoq ishladi. Kongressning so'nggi kunlarida nafaqat graflar Orlov va Valeyevskiy, balki lord Klarendon va Kauli sulh tuzishni tezlashtirishga harakat qildi. Lord Klarendon Rossiya va Turkiyaning Qora dengizda bir qancha harbiy kemalar miqdori va qurollanishi haqidagi masalani to'liq va tez hal qilishni talab qildi. Shunisi aniqki, ratifikasiyagacha Angliya va Fransiya Kerch, Yenikali, Kenbuln va Yevpatoriyan o'z qo'shinlarini evakuasiya qilish haqida buyruq berdi. Ikki hukumat vakillari darhol evakuasiyani tugatish haqida bayonat berdi. Avstriya qo'shinlarining Dunay knyazliklaridan chiqishi haqidagi masala tinchlik shartnomasi imzolanganidan keyingi kunlarda rasman va tantanali ravishda e'lon qilindi.

²¹ Тарле Е.В.Крымская война. Т. 2.С.542.

1856 yil 30 martda kongress ishtirokchilari Parij tinchlik shartnomasini imzoladilar. 1853 yilda boshlanib, uzoq davom etgan qonli urush nihoyasiga yetdi. Yevropadagi diplomatik doiralar Rossiyaning kichik yon berishi orqali qutilib qoldi deb hisobladi. Urush qatnashchilaridan biri Parij traktati haqida “bu hujjat bilan tanishib, unda kim g’olib, kim mag’lub ekanligini hyech qanday tasavvur qilib bo’lmaydi” deb aytgan edi²².

Shunday qilib, Qrim urushi nafaqat urushda qatnashgan davlatlar –Rossiya va Britaniya imperiyalari, Fransiya, Turkiya, Sardiniya balki rasman betaraf turgan Avstriya, Prussiya kabi Germaniya ittifoqining bir qator davlatlariga ham katta ta’sir qildi²³.

Qrim urushi yuz minglab kishilarni hayotdan olib ketib XIX asrning eng qonli urushlaridan biri sifatida tarixga kirdi. Olingan jarohatlar tufayli hospital va lazaretlarda vafot etganlarning soni jang maydonlarida xalok bo’lganlarning sonidan kam bo’lmagan. Qrim urushining ushbu sabog’i Rossiyada 1860-1870 yillardagi islohatlar davrida e’tiborga olindi²⁴.

II.Bob. BOLQON INQIROZI VA RUS-TURK URUSHI

2.1. Bolqondagi siyosiy vaziyat

1870 yillar boshlarida ham Bolqon yarim orolining kattagina qismi Usmoniylar imperiyasi hokimiyati ostida qolaverdi. Mazkur hududda Bolgariya, Makedoniya, Bosniya, Gersogovina, Albaniya, Epir va Fissaliya joylashgan edi. Faqat Gresiya rasman mustaqil davlat edi. Chernogoriya amalda mustaqil hisoblansada, mustaqil davlat huquqi maqomiga ega emas edi²⁵. Turk zulmidan ozod bo’lish mustaqil

²² Дегоев В. Россия и Крымская система (1856-1871г.) //Россия XXI. 2000. №4. С. 104.

²³ Зубарева Е.Ю. Пруссия в Крымской войне: незаметный победитель//Вестник Московского университета. Сер. 8. История. 2006. №3. С. 46.

²⁴ Наумова Ю.А. Санитарно-медицинские средства и потери русской армии в Крымскую войну// Вестник Московского университета. Сер. 8. История. 2006. №5. С. 3.

²⁵ История дипломатии. В новое время (1871-1914). Том 2. Автор тома В.М.Хвостов. М.,1963. С. 83.

milliy davlatlarni tuzish, Bolqon xalqlarining eng muhim vazifalaridan edi. Shu bilan bir qatorda turklarning Bolqondagi hukmronligini chek qo'yish, Usmoniylar imperiyasining Yevropadagi hududlari masalasi xalqaro siyosatning eng dolzarb muammolaridan birini tashkil etdi.

70 yillarda asoratga solingan Bolqon xalqlarining milliy harakati taraqqiyotida yangi bosqich boshlandi. Ayniqsa bolgarlarda o'z ozodligi uchun kurashuvchi inqilobiy-demokratik oqim shakllandi. Vasil Levskiy boshchiligidagi Bolgariya inqilobi markaziy qo'mitasi o'zining asosiy vazifasi deb Bolgariyada turklarga qarshi qurolli xalq qo'zg'olonini tashkillashtirishni bilar edi. Biroq 1872 yil dekabr oyida Vasil Levskiy qamoqqa olinib, 1873 yil 6 fevralda o'limga hukm qilindi. Bolgarlarga nisbatan qattiq terror qo'llanildi. Eng yirik qo'zg'olonlardan biri 1875 yil mayda Gersegovinada ko'tarildi. Keyinchalik bu qo'zg'olon Bosniya hududiga ham tarqaldi. Qo'zg'olonga bahona sifatida ashar solig'ining 25 % ga o'sishi to'g'risidagi farmon xizmat qildi. Qo'zg'olonchilar milliy mustaqillik uchun kurash olib bordilar. Ular musulmon dvoryanlar qo'lidagi yerlarni talab qilib chiqdilar. Qo'zg'olon Serbiya va Chernogoriyada qizg'in hayrihohlik bilan kutib olindi. Bu mamlakat halqlari janubiy slavyanlarni milliy ozodligini nihoyasiga yetkazishga urindi.

Janubiy slavyanlar milliy harakati birinchi navbatda Turkiyaga qarshi qaratilgan bo'lsada, u Avstriya-Vengriya uchun ham havf tug'dirar edi. Avstriya burjuaziyasi va venger pomeschiklari slavyan ozodligining asosiy dushmanlari edi. Halqlarning ommaviy harakati feodalizmga qarshi kurash va burjua inqilobi ifodalaridan biri bo'lib qoldi. Bu buyuk davlatlarning aralashuvi va ularning diplomatik faolligini oshirishga xizmat qildi. Slavyan xalqlari ozodligini bartaraf qilish uchun Avstriya burjuaziyasi va madayar dvoryanlari ta'siri ostida Avstriya-Vengriya hukumati usmoniylar imperiyasi butunligini saqlashga urindi. Aksincha Rossiya slavyan milliy harakatiga homiylik qildi. 50-70 yillarda "sharq masalasi" Rossiya uchun muhim tashqi siyosiy masala bo'lib qoldi. U o'z maqsadini 1856

yildagi Parij traktatini bekor qilishga erishish va Qrim urushida mag'lubiyatga uchrash natijasida yo'qolgan Bolqon yarim orolidagi hukmron pozitsiyasini tiklashda ko'rdi. Noqulay xalqaro vaziyat sharoitida Rossiyaning harbiy iqtisodiy qoloqligi va siyosiy biqirligi sharoitida rus diplomatiyasi mojaro va murakkabliklarni bartaraf etish orqali maqsadiga erishishi mumkin edi. Parij sulhi Portani xristian fuqarolariga Rossiyaning homiyligini butunlay bekor qilgan edi. G'arb davlatlari Usmoniylar imperiyasi hududida o'z ta'sirini kuchaytirish va uni iqtisodiy qaram qilishda foydalandilar. Qrim urushidan so'ng Turkiyada xorijiy kapital miqdori sezilarli darajada o'sdi.

Buyuk davlatlar Bolqondagi yangi sharoitda Portaning xristian aholisi huquqlarini kengaytirishga va'da bergan va 1856 yil fevralda sulton e'lon qilgan xatti-xumoyunni ishlab chiqdilar. G'arbiy Yevropa davlatlari Turkiyaning janubiy slavyan xalqlari ustidan hukmronligini saqlashga urinib, uning islohatlar yo'liga kirishini ta'minladilar. Boshqa tomondan ular islohatlardan xalqlarni milliy-ozodlik harakatini to'htatish va Rossiyaning Usmoniylar imperiyasining Yevropadagi provinsiyalaridagi ta'siriga qarshi turish uchun foydalandilar.

Qrim urushidan keyingi o'n yillik davomida rus tashqi siyosati yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'ldi: 1856 yildagi shartnomani bekor

qilishga yo'naltirilgan vazifalarni amalga oshirish, Yevropada kuchlar nisbatini tenglashtirish va ittifoqlar tizimiga o'zgartirishlar kiritish; Turkiyada xristian aholisining huquq va erkinliklarini kengaytirish va ularni o'z ittifoqchilariga aylantirish.

Bu siyosat real asoslar bilan bog'langan bo'lib, rus hukumti slavyanlarga Usmoniylar imperiyasi va Avstriya-Vengriyaga qarshi ittifoqchi sifatida e'tibor berdi. Bu ko'p millatli ikki davlat janubiy slavyanlarni asoratga soluvchi davlatlar edi. Ular Rossiyaning Yaqin Sharqda, asosan Bolqonda hukmronlik uchun

kurashida raqobatlashib kelar edi. Ruslarning Bolqondagi ta'siri Avstriya-Vengriya bosqinchiligining muvaffaqiyati uchun juda muhim to'siq edi.

Rus hukumatining Yaqin Sharqdagi asosiy manfaatlari bo'g'ozlar haqidagi masalaga qaratilgan edi. Bu davrda Bosfor va Dardanell butun Rossiya janubi uchun katta ahamiyatga ega edi. Bu bo'g'ozlar orqali Janubiy Rossiyaning butun dengiz savdosi uchun yagona chiqish yo'li o'tgan va ular orqali Qrim urushi davrida yuzaga kelgan taxminlarga binoan janubiy rus qirg'oqlarida dushman harbiy flotining suqilib kirishi ehtimoli bor edi. Bu davrda Usmoniylar imperiyasining zaiflashib qolishi, unga bo'lgan da'volarning o'sishiga olib keldi. Bu bo'g'ozlardagi hukmronlikka da'vogarlardan biri Angliya bo'lib, ushbu hududlar orqali Yevropadan Hindistonga savdo yo'li o'tganligi uchun u Usmoniylar imperiyasiga ta'sir o'tkazishga urinar edi. Angliyaning asosiy raqibi sifatida Rossiya chiqmoqda edi. Har ikkala davlat Bosfor va Dardanell bo'g'ozlarida hukmronlik qilish uchun kurashadi.

Rossiya o'zining Bolqondagi ta'sirining kengayishini bu xududlarning Yevropa qirg'oqlari ustidan strategik hukmronligini ta'minlashga xizmat qilishini yuqori baholadi. Rossiya shuni e'tiborga olib Avstriya-Vengriyaning Bolqonda hukmronlikka erishishini hohlamaganidek o'z navbatida ular ham ushbu hududda Rossiyaning ta'sirini kengayishini istamas edi. Agarda Avstriya-Vengriya o'zining slavyan aholisi uchun havf tug'dirgan ushbu vaziyatni Turkiya foydasi uchun hal etilishini yoqlagan bo'lsa, undan farqli ravishda Rossiya slavyan xalqlarining ozodlik kurashini qo'llab-quvvatladi. Uning feodalligi yuqori darajada rus – turk munosabatlari muhiti va Turkiya pozitsiyasidagi o'zgarishlarga bog'liq bo'lib qoldi. Rus hukumati qo'zg'olonchi slavyanlarga yordam ko'rsatishni zarur deb hisobladi. U bunday yo'l bilan Qrim urushidagi mag'lubiyatdan keyin ular orasidagi o'z obro'sini tiklashni ko'zlagan edi. Avstriya-Vengriya tomonidan gersogovinaliklarga yordam berilishi vaziyatni yanada murakkablashtirdi. Rus hukumati gabsburglarning slavyan homiysi roliga yon berishga ham va Bolqon masalasiga aralashib, Avstriya – Vengriya bilan jiddiy to'qnashuvga borishni ham istamadi.

1875 yil avgustda diplomat Gorchakov Venaga slavyanlar himoyasi masalasiga birgalikda kirishishga rozilik haqida ma'lumot berdi. Rossiya hukumati qo'zg'olon ko'targan provinsiyalarga keng avtonomiya berish kerakligini ta'kidladi. Avstriya-Vengriya esa bu provinsiyalarni o'z tarkibiga qo'shib olishni mo'ljallagan edi. Biroq tezda Andrashi Rossiya bilan qo'zg'olonchilar himoyasida birgalikda harakat qilishga rozilik berdi. Shunday holda Gersogovina masalasi Rossiya qo'liga o'tdi. Shu bilan birgalikda harakat boshlanib, Yevropaning uch davlati - Avstriya-Vengriya, Rossiya va Germaniya roziligi bilan Turkiyaga qo'zg'olonchi viloyatlarga olti davlat konsullari tarkibida xalqaro komissiya yuborishni Portaga taklif qildi. Porta bu taklifga rozi bo'ldi, biroq konsullarning vositachilik faoliyati tomonlarning kelishuviga olib kelmadi.

Rus hukmron doiralarida bo'lganidek, Avstriya-Vengriya hukmron doiralarida ham birlik bo'lmadi. Rossiyada Gorchakov siyosatiga qarshi slavyanchilarga tayangan guruh mavjud edi. Bu oqimga saroyda taxt vorisi boshchilik qildi. Slavyanchilar slavyan do'stlari sifatida chiqishdilar. Biroq slavyanchi arboblarning ko'pchiligi Rossiya yordami bilan slavyan xalqlari milliy ozodlik kurashini yakunlashi va uning atrofida yosh slavyan davlatlarini to'plash maalasini ilgari surdilar.

1875 yil 30 dekabrda Andrashi 1856 yilgi Parij traktatini imzolagan barcha davlatlarning hukumatlariga Bosniya va Gersogovinadagi islohatlar loyihasi bayon qilingan notani taqdim etdi. Davlatlar Andrashi taklifiga roziliklarini bildirishdi. 1876 yil 31 yanvarda Andrashi loyihasi Parij traktatini imzolagan barcha davlatlarning elchilari tomonidan Portaga jo'natildi. Turkiya ushbu loyihani qabul qildi, biroq qo'zg'olonchilar uni qabul qilmadilar, shu tarzda Andrashi taklifi inqirozga uchradi.

Sahnaga endi rus diplomatiyasi chiqadi. Ular qo'zg'olonchilarning talablarini qo'llab-quvvatlaydi. Biroq ularning talablari Turkiya tomonidan rad etiladi. Bu vaziyatda Gorchakov Andrashi va Bismarkka uch vazir uchrashuvida

vaziyatni yaxshilash bo'yicha taklif bildirdi. Bu orada buyuk vazir Nadim poshsho istefoga chiqdi. U rus ta'sirini o'tkazuvchisi edi. Uning istefoga chiqishi turk hukumatini Angliya yo'nalishiga og'ishini kuchaytirdi. Turkiyaning qo'zg'olonga qarshi zulmi ayniqsa Bolgariya kuchaydi.

Rus hukumati oldingidek, Turkiyadan Bolqon yarim orolidagi barcha slavyan viloyatlariga avtonomiya berishni talab qildi. Gorchakov aynan mana shu g'oya bilan Berlinga tashrif buyurdi. Uch hukumat vakillari "Berlin memorandum" nomi bilan ma'lum bo'lgan hujjatni uzil-kesil tasdiqladi. Unda kerakli natijalarga erishilmasda uch imperator saroyi birgalikda harakat qilishga kelishib oldilar. Berlin memorandum 1876 yil 13 mayda qabul qilindi. Uch imperator saroyining maqsadi Usmoniylar imperiyasini saqlash bilan bog'liq edi. Biroq bu xristian aholisining ahvolini yengillashtirish bilan bog'liq bo'lib, "yaxshilangan status quo" ni yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Biroq Berlin memorandumini Dizraili boshchiligidagi ingliz hukumati tan olmadi. Bu vaqtga kelib, kutilmaganda Bolqonda yangi voqyealar ro'y bera boshladi. Berlin memorandum

paydo bo'lishi bilan bir vaqtda turklar Bolgariya qo'zg'olonini bostirdilar. Qo'zg'olon vaqtida 30 mingdan ortiq bolgarlar qirib tashlandi.

29 aprel 1876 yilda Ignatyev Berlindan bevosita Aleksandr II ga Bolqon yarim orolidagi voqyealar rivoji to'g'risida, ayniqsa ular orasida markaziy o'rinni egallagan Aprel qo'zg'oloni haqida bir qancha ma'lumotlarni yuboradi. Ignatyev Sharq inqirozi boshlarida Yevropa Turkiyasida islohatlar o'tkazish yo'li bilan separat rus-turk bitimi vositasida Bolqon masalasini hal qilish mumkin emasligini aytgan bo'lsa, endi "hozirgi sharoitda islohatlar yo'li bilan Bolqon yarim orolida tinchlikni o'rnatib bo'lmasligini" ta'kidladi.

Bu ma'lumotlarni rus elchisi 1 may Berlinda vaqtida oldi. Aleksandr II Gorchakovga “bu depishani ikki kanslerga o'qib berish” ni va “hozirgi vaziyatda havf tug'dirgan” Usmoniylar imperiyasining zo'ravonligiga urg'u berishni ta'kidladi.

Shunday qilib, Rossiya buyuk davlatlar orasida birinchi bo'lib Berlin kengashida qo'zg'olonchi provinsiyalarga milliy avtonomiya berishni taklif etdi. Bu holatda Usmoniylar imperiyasining parchalanishi-mustaqil milliy davlatlarning vujudga kelishiga zamin yaratar edi. Majlisda Avstriya-Vengriyadan vazir Andrashi Bolqondagi keskinlashgan voqyealarning ahamiyatini passaytirishga urinib Portani qo'llab-quvvatlab qo'zg'olonni bostirishni yoqlab chiqdi. Rossiya taklifi Germaniya va Avstriya-Vengriya tomonidan rad etildi.

1876 yilning ikkinchi yarmida rus diplomatiyasi oldida ancha og'ir bo'lgan masala kundalang turdi. Rossiya “Bolqon xalqlariga yordam ko'rsatib, Avstriya-Vengriya bilan qarama-qarshilikka uchramaslik” ka harakat qildi. Bu mashaqqatli masala 1876 yil 26 iyunda Aleksandr II va Frans Iosifning Reyxshtaddagi mahfiy uchrashuvida hal qilinishga harakat qilib ko'rildi. Kelishuv ikki tomondan Andrashi va Gorchakov o'rtasidagi kelishuv bilan

yakun topdi xolos. Ikki tomon ham bu urushda aralashmaslik majburiyatini oldilar. Agar turklar g'alaba qozonsalar Serbiyadagi “Status quo” ni tiklashni talab qiladigan bo'ldi. Agar serblar g'alabaga erishsalar, “yirik slavyan davlatini tashkil topish jarayoniga xalaqit bermaslikka” kelishib oldilar. Reyxshtad kelishuvi bo'yicha Rossiya 1856 yilda undan tortib olingan Janubi-G'arbiy Bessarabiya va Batumini qo'shib olishga Avstriya-Vengriya roziligini oldi. Bu davrda Turkiyada millatchilik va musulmon fanatizmi avj olgan edi. Davlatlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarga tayanib yangi turk hukumati qo'zg'olonchi viloyatlarning xristian aholisiga yon berishdan voz kechdi. 1876 yil 30 iyunda boshlangan Serbiya – Turkiya urushi notinch muhitni yanada og'irlashtirdi. 1876

yil 5 oktyabrda davlatlar urush havfi ostida Portadan zudlik bilan Serbiya bilan sulh tuzishni talab qildi. Shu yilning 10 oktyabrida Porta Serbiyaga sulh taklif qilishga rozi bo'ldi. Biroq Porta tayyorgarlik ko'rish uchun olti oylik muddat so'radi. Rossiya bu vaqt davomida Prussiyaning o'z armiyasini qayta tuzib, yangidan urush boshlash havfini sezgan holda, 14 oktyabr kuni Porta taklifini rad etdi. Rus hukumati Serbiyaga yarashish sulhini rad etishni maslahat berdi. Biroq Serbiyaning ahvoli og'irlashgan edi. Milan yordam haqida Rossiyaga murojaat qildi. 15 oktyabr kuni Livadiya saroyida podsho raisligida davlat majlisi chaqirilib, unda taxt vorisi, Gorchakov, moliya vaziri Reterin, harbiy vazir Melotin, imperator saroyi vaziri Adlerberg va Rossiyaning Turkiyadagi elchisi Ignatyev qatnashdi. Unda Bolqon yarim orolida Usmoniylar imperiyasi xristian viloyatlarining bo'lg'usi tuzumini muhokama qilish uchun Istambulda tezlikda konferensiya chaqirilishini amalga oshirishga qaror qilindi. Agar konferensiya chaqirilmasa, yoxud kerakli natijaga erishilmasa harbiy safarbarlik e'lon qilishga kelishildi. Bu urush boshlashdan kura ko'proq Turkiyani yon berishga majbur qilishni anglatar edi.

1876 yil 31 oktyabrda rus hukumati birinchi marta bir tomonlama chiqishga qaror qildi: Ignatyev Portaga olti haftadan ikki oygacha bo'lgan muddatda yarashuv sulhini tezlashtirish talabi bilan ultimatum qo'ydi. Ultimatum javobi uchun 48 soat muddat qo'yildi. Rus talablari rad qilinsa, Rossiya Turkiya bilan diplomatik aloqalarini uzishi aytib o'tildi. Bundan havsiragan Porta uning talabalarini qabul qildi. Rus ultimatumini Serbiyani to'liq tor-mor bo'lishdan qutqarib qoldi. Serblarning o'zlari tan olishi bo'yicha, agar bu majburiyat 24 soatga kechikkanida turklar Belgrad va Serbiyani bosib olishi mumkin edi. Angliya tashabbusi bilan Istambulda konferensiya chaqirish taklifi ilgari surildi. Shu yil 11 dekabrda bu hududda dastlabki muzokaralar boshlandi. Buyuk davlatlarning vakillari Usmoniylar

imperiya Bosniya, Gersogovina va Bolgariyaga avtonomiya huquqini berishi to'g'risida kelishib oldilar. Bu bo'yicha Bolgariya, Avstriya foydasiga meridianal yo'nalishda Sharq va G'arbga bo'linishi kerak edi. Rossiya Bolgariyani, Avstriya-Vengriya Bosniyani va Gersogovinani okkupasiyasidan voz kechdi.

1876 yil 23 oktyabrda konferensiyaning rasmiy ochilishi bo'lib o'tdi. Konferensiya ishtirokchilari oldiga bundan keyin nima qilish kerakligi haqida masala qo'yildi. Rus delegatlari Turkiyaga davlatlar qarorini qabul qilishni taklif etdi. Biroq Porta Angliyaning mahfiy quvvatlashiga suyanib, ikkinchi marta konferensiya talablarini rad etdi. Davlatlarning o'z elchilarini Istambuldan chiqarib ketish tahdidi ham turk hukumatiga ta'sir ko'rsatmadi. Porta Istanbul konfrensiyasi ishtirokchilarini Bolgariyaning mu'tadil pozitsiyasidan chalg'itishga harakat qildi. Konferensiya ochilgunga qadar bolgar delegatsiyasi buyuk davlatlarning vakillariga petisiya (talabnoma) topshirdi. Bu hujjatda bolgarlar o'z mamlakatiga to'liq avtonomiya berilishini talab qilgan edi. 1876 yil 13 dekabrda bolgar markaziy xayriya jamiyati Gorchakovga maktub bilan murojaat qilib, konferensiyada Bolgariyaning siyosiy dasturini qo'llab-quvvatlashini so'radi²⁶.

Bolgarlar Rossiyaga to'g'ridan-to'g'ri iltimos bilan murojaat qilib Turkiyaga qarshi urush boshlashni va Bolgariyani ozod qilishini so'radilar. Ular uchun Usmoniylar imperiyasi zulmidan ozod bo'lishda Rossiyaga umid ko'zi bilan qaradi. Bu voqyealar rivojida Rossiya muhim o'rin egalladi. 1877 yil 15 yanvar kuni Budapeshtda Rossiyaning Turkiyaga karshi urushida Avstriya-Vengriyaning betarafligini ta'minlagan mahfiy konvensiya imzolandi. Unga ko'ra Avstriya-Vengriyaga o'z qo'shinlari bilan Bosniya-Gersegovinani okkupasiya qilish hukuki berildi. Bu kelishuv bo'yicha Avstriya-Vengriya harbiy operatsiyani Ruminiya, Serbiya, Bolgariya va Chernogoriyaga dahl qilmaslik, Rossiya esa Bosniya-Gersegovina, Serbiya va Chernogoriyaga dahl qilmaslik majburiyatini oldi. Bu ikki konvensiya-asosiy va qo'shimcha konvensiyalarni Andrashi va Venadagi rus elchisi

²⁶ Освобождение Болгарии от турецкого ига. Документы. В 3 т. М., 1961-1967. Т. 1.С. 556.

Novikov imzoladi. Bu voqyealarga Angliya tinch qarab turaolmadi. 1877 yil 31 martda olti davlat vakillari ishtirokida London protokoli imzolandi. Bu xujjatda Serbiya va Turkiya o'rtasida sulh tuzilishi va xristian viloyatlarida tinchlikni saqlash uchun islohatlar o'tkazish Turkiyadan talab qilingan edi. Shu yilning 9 aprelida Porta London protokolini rad etdi. Unga Turkiyaning ichki ishlariga aralashish kabi qaradi. Aynan turklar Angliya yordamiga tayanib, London protokolini rad etishga qaror qildi.

2.1. Rus – turk urushi

Turkiyaning London protokolini rad etishiga javoban Rossiya zudlik bilan 1877 yil 15 aprelda yetti piyoda va ikki kavaleriyani harbiy safarbar qilishga qaror qildi. 16 aprelda Ruminiya bilan uning hududi orqali rus qo'shinlarining harakatlanishi haqidagi shartnomani imzoladi. 23 aprelda Rossiya Turkiya bilan diplomatik aloqalarini butunlay uzdi. Podsho Aleksandr II Oliy qo'mondonlik qarorgohi joylashgan Kishinyovga yetib keldi. Bu yerda u 1877 yil 24 aprelda Turkiyaga urush e'lon qilish haqidagi manifestni imzoladi. Bolqon teatrida faol harbiy harakatlar faqat iyun oyining oxirlarida boshlandi. Bunga javoban Angliya hukumati rus hukumatiga nota yubordi. Angliyadagi rus elchisi Shuvalov ingliz-rus hamdo'sligini tarafdorlaridan edi. U darhol Gorchakovdan Petrburgga kelish uchun ruhsat so'radi va poytaxtda vaziyatning jiddiyligi haqida habar berdi. Rus hukumati urush boshlab, ma'lum vaqtda dastlabki shartlar bilan uni tez tugatishni rejalashtirdi. Ular inglizlarni Misr va Suvaysh masalalari bo'yicha tinchlantirishga shoshildilar. Bo'g'ozlar va Istambulga tegishli ingliz notalariga javoban uni egallash podsho maqsadlariga kirmasligini aytdilar. Bu orada Angliya Avstriya-Vengriya bilan

Rossiyaga qarshi ittifoq tuzish haqida muzokaralar boshlab yubordi. Biroq u Avstriya-Vengriya tomonidan rad etildi.

Bu muzokaralar davom etayotgan paytda harbiy harakatlar sekin sur'atlarda rivojlandi. Faqat 23 iyunda ruslar Dunay orqali o'tib oldilar. Urush e'lon qilinganiga ikki oy bo'lsa ham turklar o'z raqiblariga qarshi qudratli suv mudofaasini tashkil etishga ulgurmagan edilar. Endi esa harbiy harakatlar tezlashib, 1877 yilning 19 iyulida general Gurko va uning otryadi Shipka davonini egallab, Bolqon tog' tizmalari chegarasiga yetib bordi.

Rus harbiy otryadi Bolgariyaning qadimgi poytaxti bo'lgan Tirnovo shahrini ishg'ol qildi. So'ngra Bolqon tog'laridan o'tadigan yo'l, Shipka

davonini egalladi. Biroq kuch yetishmasligi natijasida bundan keyin oldinga siljish to'xtab qoldi. Bolgarlar rus jangchilarini o'z xaloskorlari sifatida xursandchilik bilan kutib oldilar. Bolgarlar xalq lashkari otryadlarini tuzib, tog' yo'llarini tozaladilar va yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qildilar. Chiqish qiyin bo'lgan hududlarga o'q-dori va oziq-ovqat yetkazib berib turdilar. Bolgariyani ozod qilish harakatlari rejasi N.N.Obruchev tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, urushning birinchi davrida rus qo'mondonligi aynan shu reja bo'yicha harakat qildi. Biroq Obruchev rejasi zaruriy kuch va vositalar bilan ta'minlanmadi. Asosiy e'tibor qo'shimcha kuch yig'ishga qaratildi. Shu maqsadda qo'shimcha 8 piyoda va 2 kavaleriya diviziya harbiy safarbarligi o'tkazildi. Faol harbiy harakatlarga rumin knyazi Karl ham qo'shildi. Uzoq muzokaralardan keyin Karl II piyodalar diviziyasi va alohida kavaleriya qismini jo'natdi. Dunay armiyasining umumiy miqdori 268222 kishini tashkil etdi.

Turk qo'mondonligi iyul oyini boshlarida qarshi hujumga tayyorgarlikni tugatdi. Ular ruslarga qarshi 210650 kishini yig'ishga muvaffaq bo'ldilar. Rus armiyasi turk armiyasiga nisbatan 2,5 barobar ortiq qurollarga ega edi. Turk armiyasi 3 guruhga bo'linib, ruslarni uch tomondan o'rab oldilar. Turk

qo'mondonligi murakkab vaziyatni hisobga olib, Avstriya va nemis maslahatchilari yordami bilan Janubiy Dunayda joylashgan rus armiyasini qurshovga olish rejasini ishlab chiqdi. Bu rejaga muvofiq Sulaymon poshsho qo'mondonligidagi turk armiyasi Shipka davonini egallagandan keyin umumiy hujumga o'tib, u Bolqon orqali shimol tomonga harakat qilishi kerak edi. Turk armiyasining darhol qarshi harbiy hujumga o'tishi bilan rus armiyasining havfli vaziyatga qo'yish unga yuklangan edi, biroq turk qo'mondonligiga rahbarlik va harakatlarda zaruriy birlik yetishmadi.

Rus armiyasining himoyaga o'tishi bilan harbiy harakatlarga kirish tashabbusi turk qo'mondonligi qo'liga o'tdi. Sulaymon poshsho

qo'mondonligidagi armiya Shipka davoni yo'nalishida raqiblariga juda faol harakatni namoyon qildi. Shipka davoni orqali qishki Sistovaga Dunay orqali ruslarning asosiy kechuviga eng qisqa yo'l o'tgan edi. Sulaymon poshsho davonni egallash uchun 1877 yil 7 avgusda 27 000 kishilik armiyani jo'natdi. Sulton hukumati Sulaymon poshshoga har qanday yo'qotishlarga qaramasdan Shipkani egallash vazifasini qo'ydi. U Shipka davonining ahamiyatini ikki tomon uchun ham dolzarbligini juda yaxshi tushunar edi. Bu davonni "Bolqonning yuragi" va "Bolgariya eshigiga kalit" deb ataganlar.

Shipka davonidagi birinchi jang 9 avgustda boshlanib, u shiddat bilan 13 avgustgacha davom etdi. Jangda Sulaymon poshsho armiyasi butunlay muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Rus-bolgar otryadlari o'z pozitsiyalarini mustahkam egallab, raqib hujumiga qarshi turdilar. Turk qo'mondonligi Shipka pozitsiyasiga yangi hujum rejasini ishlab chiqdi. Bu rejaga ko'ra turklar rus-bolgar otryadlariga Uzun-qush tog'i yonidan o'tib, ularning orqa tomonidan zarba berishi va ularning otryadlarini davonda yo'q qilishi yoki asirga olishi ko'zda tutilgan edi. Bu rejaga muvofiq Vassal poshsho boshliq 2500 kishi Uzun-qush tog'lari yo'nalishida Shipka gornizoni orqasiga chiqib, kurashni yakunlashi

kerak edi. 11 avgust kuni Shipkadagi rus pozisiyalariga hamma tomondan hujum boshlandi. Og'ir vaziyatga qaramasdan, rus askarlari va bolgar ko'ngilli askarlari o'z pozisiyalarida mustahkam turdilar. Shipka davonidagi jang vaqtida rus armiyasiga bolgar aholisi juda katta yordam ko'rsatdi. Urush vaqtida ikkala tomon ham katta yo'qotishlarga uchradi. Avgust mudofaa jangida janub frontining strategik vazifasi-Shipka davonini egallash nihoyasiga yetkazildi. Sulaymon armiyasining mag'lubiyati turk armiyasi ma'naviy ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Shipka mudofaasi 6 oyga yaqin, ya'ni 1877 yilning 7 iyulidan 28 dekabriga qadar davom etdi. Bu vaqt davomida ruslar bolgarlar bilan mustahkam hamjihatlikda dushmanning ustun kuchlariga qarshi mardonavor kurash olib bordilar. Bu jang Plevnani olinishiga va Bolgariyaning shimoliy qismini butunlay ozod qilinishiga, keyinchalik rus armiyasining Bolqon orqali mamlakatning janubiy rayonlariga o'tishiga xizmat qildi.

Armiyaning g'arbiy qanotidagi rus qo'shinlarining Plevna yonidagi urush harakatlari muvaffaqiyatsiz bordi. Usmon poshsho boshchiligidagi turk armiyasi bu yerda rus qo'shinlarining katta kuchlarini to'xtatib qo'yishga erishdi. Rus qo'shinlari Plevnani uch marta shturm qildi, juda ko'p talofatlar berilgan bu hujumlar har safar muvaffaqiyatsiz chiqdi. Shunda qo'mondonlik Plevnani qamal qilishga qaror qildi. Shahar batamom o'rab olindi, madad kuchlarining kelishi hamda oziq – ovqat va o'q – dori olib kelinishi to'htab qoldi. Turk armiyasining qurshovini yorib chiqish uchun urinishi natija bermadi, faqat 1877 yil 10 dekabrda 40 000 kishilik Plevna gornizoni taslim bo'ldi. Bu voqyea harbiy harakatlar sahnasida vaziyatning qaytadan o'zgarishiga olib keldi. Plevna egallanmasdan biroz oldinroq rus hukumati Germaniya va Avstriyaga o'zining bo'lajak sulh shartnomasining loyihasi haqida habar yuborgan edi. Unda Istambul konferensiyasida belgilangan keng chegaralardan iborat bolgar knyazligini tuzish; Avstriya – Vengriya boshqaruvi ostida Bosniya va Gersogovinaga avtonomiya

berish; Serbiya, Chernogoriya va Ruminiyaga to'liq mustaqillik berish; Rossiyaga janubi-g'arbiy Bessarabiyaning qaytarish; Dobruja hisobidan Ruminiyaga kompensasiya; Rossiyaga Kars, Batumi, Adraxon va Boyazidni qo'shib olish; tovon puli to'lash; so'ngra bo'g'ozlar tartibiga qator o'zgarishlar kiritish belgilandi; Qora dengiz "qirg'oq bo'yi" davlatlari, shu jumladan Rossiya zarurat yuzaga kelgan holatlarda har safar sultonning ruhsati bilan bo'g'ozlar orqali harbiy kemalarni faqat yakka – yakka holda o'tkazish huquqini olishi shular jumlasidan edi.

Turkiya uni urushga undagan Angliyadan amaliy yordam ololmadi. Shu yilning 24 dekabrda mag'lub hisoblangan Turkiya vositachilik to'g'risida davlatlarga iltimos bilan murojaat qildi. Bunga faqat ingliz hukumati rozilik bildirdi. Ular bu haqda Piterburgga murojaat qildi. Diplomat Gorchakov agar Porta urushni tugatishni xohlasa, sulh haqida iltimos bilan to'g'ridan – to'g'ri rus armiyasi qo'mondoniga murojaat qilish kerakligini aytdi.

1878 yil 8 yanvarda Porta rus qo'mondoni - buyuk knyaz Nikolay Nikolayevichga yarashuv iltimosi bilan murojaat qildi. Rus armiyasining hujumi muvaffaqiyatli rivojlanib bordi. 8 yanvar kuni rus qo'shinlarining asosiy kuchlari Bolqon tog'laridan oshib o'tdilar. Rus qo'shinlarining umumiy hujumi boshlandi. Turklar hozirgi Plovdiv yonida tor – mor qilindi, so'ngra esa ular Adrianopol ya'ni Edirnani jangsiz tashlab chiqdilar. Istambulga yurish uchun yo'l ochilgan edi. Kavkazda ham rus qo'shinlari turk armiyasini mag'lubiyatga uchratdi va Boyazid, Adraxon, Kars qal'alarini ishg'ol qildilar. Rus hukumati va qo'mondonlik sulh muzokaralarini boshlashga asossiz ravishda shoshildilar. Bu vaqtda Avstriya – Vengriya Rossiya taklif qilgan sulh shartlariga e'tiroz bilan chiqdi. Aleksandr II va diplomat Gorchakov bundan havfsirab, 17 yanvar kuni qo'mondonlikka turk vakiliga rus "sulhi asoslari"ni bayon qilmaslikni, ulardan faqat harbiy harakatlarni to'xtatishga tegishli shartlarga doir ularning takliflarini so'rab olishga buyruq berdi. Bu vatda turk hukumati rus shartlarini olish uchun qo'mondonlikka o'z vakilini jo'natishga rozilik olgan edi. Vakil bu vaqtda

Istambuldan chiqib, yo'lda Rossiya bosh shtab kvartirasi bo'lgan Kazonliqqa yetib keldi. 20 yanvarda rus qo'mondoni turk vakilini qabul qildi va Turkiya qanday sulh shartlarini taklif etishini so'radi. Turkiya vakili unga hech qanday sulh shartlari berilmaganligini va faqat ruslarning sulh shartlarini bilish uchun kelganligini ma'lum qildi. Turkiya vakiliga rus sulh shartlari taqdim etildi. 21 yanvarda turk vakilligi Rossiya talablarining katta qismini rad etdi. Ular agar bu shartlarni o'zgartirishning iloji bo'lmasa, sulh haqida hech qanday gap – so'z bo'lishi mumkin emasligini ta'kidladi.

Rus qo'mondoni 22 yanvar kuni Istanbul va Gallipolini egallash va bu yerdagi bo'g'ozlarda ingliz flotini to'sib qo'yish taklifi bilan podshoga telegramma yubordi. Biroq podsho unga Istanbulga kirishni ta'qiqladi. Shunday qilib, turk poytaxtiga kirish qo'mondonga mumkin emas edi. Ingliz hukumatining qat'iy noroziligi bilan bu ish amalga oshmay qoldi. 1878 yil 31 yanvarda Adrianopolda turklar yarashuv haqida bitim imzoladilar. Taklif qilingan sulh shartnomasining dastlabki shartlariga Turkiya rozilik berdi.

Avstriya – Vengriya Rossiya va Turkiyaning bo'lg'usi sulh artlarini xalqaro konferensiya muhokamasiga yuborilishini talab qildi. Avstriya – Vengriya Bolqonda yirik Bolgariya davlatining tashkil topishiga norozilik bildirdi. Bir qancha mulohazalardan keyin Avstriya – Vengriya talablariga ingliz hukumati ham qo'shildi. Bu bo'yicha xalqaro kongress chaqirish g'oyasi paydo bo'ldi. Rus hukumati ikki buyuk davlat bilan mojaroga borishga tavakkal qilmadi. Chunki rus armiyasi urush natijasida bir muncha zarar ko'rgan edi, qolaversa, davlatning moliyaviy ahvoli ham og'irlashgan edi.

Rus hukumati shundan kelib chiqqan holda, xalqaro kongress muhokamasiga bo'lajak sulh shartlarini yuborishga rozi bo'ldi. Bunda birinchi navbatda bo'g'ozlar haqidagi masala nazarda tutilgan edi. Ingliz hukumati mavjud vaziyatni hisobga olib admiral Xornbini Dardanell bo'g'oziga yuborishga buyruq berdi. Admiral buning

uchun bo'g'ozlar orqali kemalarning o'tishiga sultonning roziligini olishi kerak edi. Flot Dardanell bo'g'ozida harakatlana boshladi. U sultonning ruhsatini kutmasdan Bezik buxtasiga qaytadan kirdi. Sulton britan flotini Istambulga kirishiga qarshilik ko'rsatishga jur'at etolmadi. Bu shunday shart bilan amalga oshirildiki, rus qo'shinlari shaharga kirgan taqdirda ham britan flotini Istambulga kiritilishi aniq bo'lib qolgan edi. Britan flotining harakatlari haqida habar topgan podsho 1878 yil 10 fevralda rus qo'mondoniga Istambulga qo'shin kiritish to'g'risida buyruq berishga tayyorlana boshladi. Diplomat Gorchakov va harbiy vazir Milyutin norozilik bildirgach, podsho o'z qarorini o'zgartirdi. Bunda faqat ingliz desantlarining qirg'oqqa tushishi usmoniylar poytaxtini egallash uchun signal bo'lishi kerak edi. Biroq Aleksandr II da maslahatchilari ketgach, Istanbulni egallash fikri qayta tug'ildi. U kutilmagan qaror chiqarib, ikkala buyruqdan birini qo'mondonga telegraf orqali yubordi.

Britan floti Dardanell bo'g'ozini orqali o'tib, shu yilning 15 fevralida Prins orollariga langar tashladi. Flot Dardanell bo'g'ozidan sultonning ruhsatisiz o'tdi va 1871 yilda o'rnatilgan xalqaro konvensiya normalarini ochiqdan – ochiq buzdi. Britan flotining yaqinlashishiga javoban rus qo'shini turk poytaxtiga yaqinlasha boshladi va Istanbuldan 12 km uzoqlikda joylashgan San – Stefano qishlog'ida to'htadi. Angliya esa o'z flotini Marmar dengiziga olib kirdi va Istanbul ishg'ol qilinsa Rossiya bilan diplomatik munosabatlarini uzushini bildirib tahdid qildi. Avstriya – Vengriya urush harkatlarining davom ettirilishiga qarshi qat'iy norozilik bildirdi. Rossiya hukmron doiralari oldida Yevropa davlatlari bilan bo'ladigan katta urush sharpasi ko'dalang bo'ldi.

2.3 San – Stefano sulhi va Berlin kongressi

1878 yil 3 martda San – Stefanoda Rossiya va Turkiya o'rtasida dastlabki tinchlik shartnomasi imzolandi. Bu vaqtda keksayib qolgan diplomat Gorchakovning xastaligi tufayli rus diplomatiyasi faoliyatida zaruriy birlik yetishmayotgan edi. Eng ta'sirli elchilardan bo'lgan Pyotr Shuvalov Londonda yarashuv yo'llarini qidirmoqda edi. Shunga o'hshash pozisiyani Gorchakov ham egallagan edi. Uni yaqin hamkorlari – Jomini, Girs va boshqalar qo'llab – quvvatladilar. Biroq shubhasiz rus diplomatlari orasida eng ta'sirli shaxs Turkiyadagi sobiq elchi graf Ignatyev bo'lib qoldi. Podsho aynan uni Turkiya bilan sulh muzokaralarini olib borishga vakil qilib jo'natdi. Rossiyaning buyuk davlatchilik siyosatini ashaddiy tarafdorlaridan bo'lgan Ignatyev Portuga sulh shartlarini qat'iy ohangda qabul qildirdi²⁷.

San – Stefano Istambul konferensiyasida belgilangan chegaralar bilan muvofiqlikda Bolgariya hududi kengaytirildi. Unga Egey dengizi qirg'oqlarining kattagina qismi berildi. Bolgariya hududi Dunay va Qora dengizdan janubda Egey dengizigacha va g'arbda alban tog'larigacha kengaydi. Sultondan u faqat nomigagina vassal qaramlikdagi knyazlikka aylantirildi. Turk armiyasi Bolgariya atroflarida qolish huquqidan mahrum qilindi. Ikki yil davomida uni rus armiyasi

²⁷ История дипломатии. Сост. А.Лактионов...С. 485.

egallab turishi kerak deb belgilandi. San – Stefano shartnomasi Chernogoriya, Serbiya, Ruminiyaga to'liq mustaqillik, Chernogoriyaga Adriatika portini berish, rumin knyazligiga Shimoliy Dobrujani berish, Rossiyaga janubi– g'arbiy Bessarabiyaning qaytarilishi, unga Kars, Ardaxan, Boyazid va Batumini berilishini, Serbiya va Chernogoriya uchun qator hududlarni egallash ko'zda tutilgan edi. Turkiyaning xristianlar yashaydigan barcha viloyatlarida sulton hukumati xalqning ahvolini yaxshilash uchun ko'plab islohotlar o'tkazish majburiyatini oldi. Turkiya 1 mlrd. 410 million rubl miqdorida tovon puli to'lashi lozim edi. Biroq bu mablag'ning katta qismi Turkiya tomonidan hududiy yon berishlar hisobiga qisqartirildi. Amaldagi to'lov 310 million rublni tashkil etdi. Ruslar bo'g'ozlar haqidagi masalani San – Stefanoda kun tartibiga qo'ymadi.

Britan hukumati Rossiyaning Bolgariyani o'z tasir doirasiga qo'shib olib, rasman O'rta Yer dengizi davlatiga aylanishidan havfsirar edi. Bolgariya chegaralari Istambulga yaqin joylashgan bo'lib, bolgar plasdarmidan bo'g'ozlar va turk poytaxtiga doimiy havf solib turishi mumkin edi. Shunga binoan San – Stefano shartnomasiga Angliya salbiy munosabatda bo'ldi. San – Stefano shartnomasi Avstriya – Vengriya manfaatlariga ham yetarli javob bermadi. Reyxshtadt va Budapesht konvensiyalarida Bolqonda yirik slavyan davlatini tuzmaslikka shartlashilgan edi. Bunday davlatni tuzish bo'yicha Istambul konfrensiyasida Avstriya – Vengriyaning o'z taklifi bo'lib, bu bo'yicha Bolgariya Meridian yo'nalishi bo'yicha ikki qismga bo'linar edi. G'arbiy Bolgariya Avstriya ta'siri doirasiga kirishi kerak edi. Ruslar bu loyihani qo'llab – quvvatlamadi. Bolgariya Bolqon yarim orolini katta qismini qamrab olgan yagona davlat bo'lishi kerak edi²⁸.

Andrashi rasman Turkiya va Rossiya o'rtasidagi barcha sulh shartlarini muhokama qilish va bo'g'ozlar maqomini belgilash bo'yicha xalqaro kongress chaqirish taklifi bilan chiqdi. Rus hukumati “yevropa xarakteri” kasb etgan bunday shartlar muhokamasiga rozi bo'ldi. Turkiya bilan urush Rossiya uchun Angliya va

²⁸ История дипломатии. Сост. А.Лактионов... С. 507.

Avstriya bilan keskin to'qnashuvga sharoit yaratdi. Rus hukumati bunday mojaroga borishdan havfsirar edi. 1878 yil 19 fevralda Germaniya kansleri Otto Fon Bismark tomonlarni kelishtirish uchun "betaraf yarashtiruvchi" vazifasini o'tashga tayyorligini bayon qildi. Uning asosiy vazifasi masalani zudlik bilan nihoyasiga yetkazish edi. Bunday ko'rinishda Germaniya rus hukumatini faol qo'llab – quvvatlashdan oshkora ravishda uzoqlashdi. Mart oyining oxirida Ignatyev Avstriya- Vengriya hukumati bilan kelishib olish uchun Venaga yuborildi. Agar bu muvaffaqiyatli amalga oshsa, Angliyani kongressda siqib qo'yish oson kechar edi. Biroq Avstriya- Vengriya hukumatining ishtahasi Budapesht kovensiyasida o'rnatilgan doiradan oshib ketdi. Ular nafaqat Bosniya va Gersegovinani bosib olishga, balki u yoki bu ko'rinishda Bolqon yarim orolining butun g'arbiy qismi ustidan siyosiy va iqtisodiy nazorat o'rnatishni talab qildilar. Rus hukumati Bolqonning g'arbiy qismini Avstriya-Vengriya hukumati ta'siri ostiga berish masalasiga rozi bo'lmadi. Bu orada munofiqlik bilan Turkiyani himoya qilish ostida chiqqan Angliya undan Kipr orolini tortib oldi. Avstriya-Vengriya va Angliya Bolgariya masalasida kelishib, rus qo'shinlarining Bolgariyada turish muddatini olti oy deb belgilashga harakat qildi.

Kongress 1878 yil 13 iyuna Berlinda ochildi. Unda faqat olti buyuk davlat (Rossiya, Angliya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Avstriya-Vengriya) va Turkiya ishtirok etdi. Bolqon davlatlari vakillari Berlinga kelgan bo'lsalarda, biroq ular kongressda ishtirok etmadilar. Buyuk davlatlar delegasiyasiga Bismark, Gorchakov, Andrashi, Bikonsfild, Vaddington va Kortilar boshchilik qilishdi²⁹.

Kongressda rus diplomatiyasining ahvoli og'ir bo'ldi. Angliya va Avstriya-Vengriya uning ochiq dushmaniga aylandilar. Fransiyadan kelgan vakil Dekad ham kongressda Angliyani qo'llab-quvvatladi. Kongress qarorining asosiy shartlari 30 maydagi ingliz-rus kelishuvida belgilandi. Biroq unda Bolgariya chegaralari faqat umumiy jihatlarda oydinlashtirildi. Ular orasida Bolqon davonining strategik

²⁹ История дипломатии. Сост. А.Лактионов...С. 611.

ahamiyati bilan bog'liqlik qismi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu masala atrofida qizg'in bahs kechdi. Bahs Bolqondan janubda joylashgan Bolgariyaning janubiy qismiga sultonlik huquqi haqidagi masalani keltirib chiqardi. Bu yerda Sharqiy Rumeliya nomi ostida Usmoniylar imperiyasining avtonom provinsiyasini tuzishga qaror qilindi.

Inglizlar Varna va Sofiya sanjoqligini Bolgariyaga berishga rozi bo'ldi, rus hukumati esa o'z navbatida Sharqiy Rumeliyada sultonning qo'shin saqlash huquqini tasdiqlashga rozilik berdi. Rus okkupasion qo'shinining Bolgariyada turish muddati to'qqiz oy deb belgilandi, biroq Rossiyaga Bolgar knyazligida davlat boshqaruv hokimiyatini tashkillashtirish vakolati berildi. Avstriya Vengriyaning Bosniya va Gersegovinani okkupasiya qilish haqidagi masala kongressda deyarli tinch hal bo'ldi. Angliya va Germaniya uni qo'llab-quvvatladi, Rossiya esa bunga norozilik bildirdi. O'z navbatida Turkiya ham bunga norozilik bildirgan bo'lsada, u e'tiborga olinmadi. Eng qizig'i Bosniya va Gersegovinani okkupasiya qilishga Italiya da'vo qilib chiqdi. Rusning Osiyodagi hududiy o'zlashtirilgan yerlari kongress ishiga ta'sir qilmadi.

Inglizlar Rossiyaning Batumini qo'shib olishiga rozilik bermasada, faqat uning okkupasiya qilinishiga mayl bildirishdi. Bu masalada Rossiyaga yon berib, Angliya bo'g'ozlar maqomiga ingliz huquqining bevosita amalga oshirilishini talab qildi va Qora dengizga ingliz flotini kiritishga qattiq harakat qildi. Solsberi sulton oldida davlatlar majburiyatini kasb etgan 1841, 1856 va 1871 yillarda o'rnatilgan konvensiyalardagi yopiq bo'g'ozlar prinsipini e'lon qildi. Bu majburiyat agar sultonning o'zi u yoki bu flotni bo'g'ozga taklif qilsa u bekor bo'lar edi. Rossiya tomoni bu izohni keskin rad etdi. Shuvalov bo'g'ozlarni yopish haqidagi majburiyat nafaqat sulton, balki davlatlar o'rtasida ham qabul qilinishi lozimligi to'g'risida deklarasiya bilan chiqdi. Rossiya Batumini erkin savdo porti deb e'lon qilingandan so'ng uni o'z ixtiyoriga oldi. Rossiya yana Kars va Adraxanni egalladi, Boyazid Turkiya tarkibida qoldirildi. Shundan so'ng kongress Bessarabiya, Dobruja, Chernogoriya, Serbiya va Ruminiyani mustaqilligi haqidagi San-Stefano

shartnomasini o'z kuchida qoldirdi. Kongress 1871 yilgi London bitimi va Parij traktatini ham o'z kuchida qolishiga qaror qildi. Bu esa bo'g'ozlarda o'rnatilgan eski tartiblarni saqlanishini anglatar edi.

Shu yil 13 iyulda San-Stefano shartnomasini o'zgartirgan Berlin traktatini muhokama qilgan kongress o'z ishini nihoyasiga yetkazdi. Kongress qarorlariga ko'ra Rossiya o'z g'alabalarining salmoqli qismidan ajraldi. Kongress bolgar xalqini San-Stefano shartnomasi ta'minlagan yaxlitlikdan ham mahrum qildi. Kongress Bosniya va Gersogovinadagi Turkiya hukmronligini Avstriya-Vengriya hokimiyati bilan almashtirdi. Yangi xo'jayinlarga qarshi qo'zg'olonlar shavqatsizlik bilan bostirildi. O'zini Turkiyaning "himoyachilari" qilib ko'rsatgan Avstriya-Vengriya va Angliya undan Bosniya va Gersogovinani tortib oldilar. Rossiya garchi, Berlin traktati qarorlari tufayli urushda qo'lga kiritgan g'alabasi qisman cheklangan bo'lsa ham, uning ko'p sonli okkupasion armiyasi Turkiyaning Yevropa qismida qoldi. Rossiyaning aynan mana shu tayanchiga ham zarba berish uchun buyuk davlatlar qattiq kurashdilar. 1878 yil 27 sentyabrda Rossiyaning rus – turk frontidagi bosh harbiy qarorgohi Istanbul atrofidan Adrianopolga ko'chirildi. Rus hukumati o'z qo'shinlarini olib chiqib ketishi bilan yangi xalqaro murakkabliklar yuzaga kelishidan xavfsirar edi. Bir qancha muzokaralardan keyin Rossiya hukumati o'z qo'shinlarini Turkiyadan olib chiqib ketish uchun tinchlik shartnomasini imzolash kerakligini ta'kidladi. 1879 yilning 8 fevralida Rossiya va Turkiya o'rtasida Konstinopol tinchlik shartnomasi imzolandi. Berlin traktatiga kiritilgan shartlardan tashqari Turkiyaga bir qancha qo'shimcha majburiyatlar yuklandi. Turkiya urush vaqtida Rossiya yo'qotgan mablag' uchun 802500 ming frank, ya'ni 255 mln. rubl tovon puli to'lashi shart edi. Undan tashqari turk asirlarining harajatlarini ham to'lashi kerak edi. Bu qaror nafaqat iqtisodiy balki siyosiy ahamiyatga ham ega edi. Turkiyaning Rossiya oldidagi iqtisodiy majburiyati rus hukumati qo'lida uning Turkiyaga bosim o'tkazish vositasi sifatida qolar edi. Chunki bu vaqtda Turkiya iqtisodiy-moliyaviy inqiroz yoqasida edi.

Istanbul shartnomasiga muvofiq ikkala tomon ham urush davrida dushman qo'shini bilan aloqalarda shubha qilingan rus yoki turk fuqarolarini hech qanday ta'qib qilmaslikni o'z zimmasiga oldi. Turk zulmiga qarshi milliy-ozodlik harakati ishtirokchilarining barchasiga umumiy avf berildi. Tinchlik shartnomasi imzolanganidan keyin rus qo'shinlari Sharqiy Rumeliya va Bolgariya knyazligi hududidan mustasno tarzda 1879 yilning fevral, mart oylarida Turkiyaning deyarli barcha hududidan chiqib ketishi ta'kidlandi. Rus qo'shinlarining Sharqiy Rumeliya va Bolgariya knyazligida turish muddati Berlin traktati ratifikasiyasidan keyin 9 oy deb belgilandi. Shundan so'ng rus qo'shinlari evakuasiyasini amalga oshirish uchun 3 oylik muddat beriladigan bo'ldi.

1879 yil 22 fevralda Tirnovada rus komissari Dondukov-Karsakov Bolgariya ta'sis majlisini ochib, birinchi bolgar konstitusiyasini e'lon qildi. Shu yil 29 aprelda bu konstitusiya asosida knyaz saylovi uchun Buyuk xalq majlisi ochildi. Knyazlikka nomzod sifatida rus malikasining jiyani shaxzoda Aleksandr Battenberg ko'rsatildi. Bu Rossiyaning katta xatosi edi. Battenberg Avstriya-Vengriya va Angliya siyosatining targ'ibotchisiga aylandi. Shu voqea munosabati bilan Bolgariya va Rossiya o'rtasidagi diplomatik aloqalar batamom uzildi. 1879 yil iyulda rus qo'shinlarining so'nggi qismlari ham Bolgariya hududlarini tark etdi. Rus qo'shinlarini olib ketilishi Rossiyaning Bolqondagi ta'sir doiralarini qaytadan zaiflashtirdi.

XULOSA

Nafaqat Yevrosiyaning, balki dunyoning yirik imperiyalari bo'lmish – chor Rossiyasi va Usmoniylar davlati o'rtasida yangi zamon tarixi davomida mustamlakalar uchun shiddatli kurash avj olib, ko'p sonli urushlar bo'lib o'tdi. Bu davlatlarning manfaatlari to'qnash kelgan hududlar asosan Janubi - Sharqiy Yevropa (Bolqon yarim oroli), Kavkazorti hududlari, shuningdek, Qora dengiz va O'rta yer dengizi suv havzalari bo'ldi. Rossiya Napoleon Fransiyasi ustidan g'alaba qozonib, Yevropa davlatlarini fransuz zulmidan ozod etdi. Natijada Yevropada humronlik Fransiyadan Rossiya qo'liga o'tdi. Rossiyaning xalqaro mavqeyi nihoyatda kuchayib ketdi. Shu bois XIX asrning birinchi yarmi davomida Rossiya Yevropaning siyosiy va xalqaro hayotida muhim rol o'ynadi. Yevropa davlatlarida ko'tarilgan inqilobiy harakatlarni bostirishda ularga harbiy yordam berib, “Yevropa jandarmi” degan nom oldi. Bu davrda Yevropa davlatlari inqilobiy va ba'zan tadrijiy ravishda burjua islohatlarini amalga oshirib, taraqqiyotda katta sifat ko'rsatgichlariga erishdilar. Hali hanuz eski feodal munosabatlar hukmron bo'lgan Rossiya va ayniqsa, Usmoniylar imperiyasi ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy sohalarda ulardan ortda qolib, qoloq va harbiy jihatdan zaif davlatlarga aylanib qoldi.

XIX asr o'rtalarida Usmoniylar davlatining ijtimoiy – iqtisodiy inqirozi juda chuqurlashib ketdi. Ushbu jarayonni yanda murakkablashtirgan omillardan biri bu markaziy hokimiyatning zaiflashuvi oqibatida milliy – ozodlik harakatlarining avj olishi bo'ldi. Ayniqsa Usmonli turklar hukmronligi ostidagi Bolqon xalqlari orasida ushbu harakat kuchaydi. Milliy – ozodlik harakatlarini bostirish chog'idagi turk jazo otryadlarining shavqatsizliklari Yevropa davlatlarida jumladan, Rossiya imperiyasida e'tiroz uyg'otadi va mazkur muammoga ularning aralashuviga sabab bo'ladi. Shunday qilib, XIX asr o'rtalarida Rossiya davlati Usmoniylar imperiyasining chuqur inqirozidan foydalangan holda, Bolqon hududida o'z ta'sirini kuchaytirib, mavqeyini mustahkamlashga harakat qiladi. Bu esa ikkita yirik

imperiylar o'rtasidagi navbatdagi urushlarga olib keladi. Buyuk davlatlar ham Yevropadagi siyosiy muvozanatni saqlash, Bolqonda biron bir davlat ta'sirining kuchayib ketmasligi va qolaversa, o'z manfaatlari himoyasi yo'lida mazkur mojarolarga aralashib vaziyatni yanada keskinlashtiradilar.

1853-1856 yillardagi Qrim urushi va 1877-1878 yillardagi rus – turk urushi XIX asr ikkinchi yarmida Rossiya va Usmoniylar imperiyasi o'rtasidagi ziddiyatlarning eng yuqori cho'qqisi sifatida baholanadi. 1853-1856 yillardagi Qrim urushining tub mohiyatini hududiy da'volar va ta'sir doiralari tashkil etdi. Urushga niqob sifatida turli bahonalar ilgari surildi. Urushda qatnashgan har bir davlat ishtirokini o'zicha asoslashga harakat qildi.

1853 yil fevralida Nikolay I Portadan Usmoniylar imperiyasidagi barcha xristian aholisi ustidan hukmronlikni Rossiyaga berilishini talab qildi. Angliya va Fransiya tayangan sultonlik ushbu talabni rad etdi. Bunga javoban rus qo'shinlari Turkiya suzerenligida bo'lgan Moldaviya va Valaxiyani bosib oldi. 1853 yilning sentyabrda turk qo'shinlarining Dunay bo'yi knyazliklari va Kavkazga tomon yurishi bilan Rossiya Turkiya o'rtasida «Qrim urushi» boshlandi. 1854 yil bahorida urushga Turkiya tomonida turib Angliya va Fransiya, 1855 yilda Sardiniya qo'shildi. Urush ittifoqchilarning g'alabasi bilan nihoyasiga yetdi.

1856 yilning fevralida sulh shartnomasini imzolash uchun Rossiya, Fransiya, Angliya, Avstriya, Turkiya va Sardiniya davlatlarining vakillari Parijda kongressga yig'ildilar. Kongress bir oydan ziyodroq muddat davomida og'ir diplomatik kurash ruhida kechdi. Folib davlatlar o'rtasida jiddiy tortishuvlar yuz berdi. Angliya Rossiyadan Kavkaz va u bosib olgan boshqa yerlarni tortib olinishini, Qora va Boltiq dengizlarida rus harbiy floti bo'lishini ta'qiqlash lozimligini talab qildi. Avstriya esa Moldaviya va Valaxiyaga, Bessarabiyaning janubiy qismiga da'vogarlik qildi. Fransiya esa Yaqin Sharq va Bolqonda Angliya va Avstriyaning mavqeyini kuchayishidan tashvishga tushib, Rossiyaning zaiflashtirishiga qarshi turdi. Mazkur ziddiyatlardan o'rinli foydalangan rus diplomatiyasi ittifoqchilardan bir qator yon berishlarga erishdi. 1856 yil 30 martda Parij sulh shartnomasi

imzolandi, uning asosini Fransiya ilgari surgan talablar tashkil qildi. Rossiya Bolqondagi Turkiya mustamlakalariga bo'lgan da'volaridan voz kechdi. Kars, Valaxiya, Moldaviya Turkiyaga qaytarildi. Dunay daryosi ittifoqchilarning floti uchun ochib qo'yildi. Qora dengiz havzasi betaraf deb e'lon qilindi, Rossiya va Turkiyaning Qora dengizda harbiy flot saqlashi ta'qiqlandi. Qrim urushida Rossiyaning mag'lubiyati mamlakatda davom etayotgan feodal-krepostnoylik inqirozini keskinlashtirdi va Rossiya hukmron doiralarini burjua islohotlarini tayyorlashga majbur qildi.

Rossiyaning urushda yengilishi mamlakatda krepostnoylik tizimining tugatilishiga olib keldi. Turkiya esa G'arb davlatlariga iqtisodiy va siyosiy jihatdan yanada qaram bo'lib qoldi. G'arb davlatlari sulton hukumatini katta miqdorda qarzga botirib, Usmoniylar imperiyasidagi boshqa xalqlar ustidan turklar zulmini qo'llab-quvvatladilar. Qrim urushi XIX asrning 50 yillar Rossiyaning Yevropa reaksiyasi davrini yakunlab berdi. Qrim urushidan keyin Rossiyaning xalqaro hayotdagi roli zaiflashdi.

1876 yilda Avstriya - Vengriya va Rossiya o'rtasida imzolangan Reyxshtadt bitimiga ko'ra kelgusida rejalashtirilayotgan rus-turk urushida Gabsburglar imperiyasining betarafligini ta'minlash maqsadida rus hukumati Bosniya va Gersegovinaning egallanishiga va shuningdek, Qrim urushidan so'ng boy berilgan Bessarabiyaning bir qismini Rossiyaga qaytirilishi haqida tomonlar kelishib oldilar. Bitim Avstriya - Vengriya manfaatlaridan kelib chiqqan holda, Bolqonda yirik bir slavyan davlatining tashkil etilishini rad etgan edi.

Rus - turk urushida Rossiyaning g'alabasi natijasida imzolangan San - Stefano sulh shartnomasiga ko'ra Rossiyaning barcha hududiy da'volari qondirildi. Serbiya, Chernogoriya va Ruminiya mustaqillikka erishdi, yirik Bolgariya knyazligi tashkil topdi. Avstriya - Vengriya va Angliya Istambulga flot yuborib, Rossiyaning San-Stefano shartnomasini qayta ko'rib chiqishga majbur etdilar. Berlin kongressida (1878) Yevropa davlatlari Rossiya egallagan hududlarni qisqartirib, Bolqonda uning hukmronlik mavqeyini pasaytirdilar.

Xulosa qilganda, 1877-1878 yillarda Turkiyani mag'lubiyatga uchratgan Rossiya San-Stefano sulhi va Berlin kongressi qarorlariga muvofiq Qrim urushida boy berilgan hududiy yo'qotishlarni va xalqaro obro'sini qisman tiklashga muvaffaq bo'ldi.

MANBALAR VA ADABIYOTLAR

1. Балканы в конце XIX - начале XX вв. Отв.ред. Ю.А. Писарев. М., 1991.

2. Vinogradov V.N. Vengerskiy poход I.F. Paskevicha 1849 g.: legenda i deystvitelnost // Novaya i noveyshaya istoriya. 2000, №5.
3. Vinogradov K.B. Mirovaya politika 60- 80-x godov XIX v. L., 1989.
4. Vinogradov K.B., Surtayev P.B. Koroleva Viktoriya, prins-suprug Albert i Krymskaya voyna // Novaya i noveyshaya istoriya. 2004, №2.
5. Vyazemskaya Ye.K., Danchenko S.I. Rossiya i Balkany. Kones XVIII-1918.M.,1940.
6. Danilevskiy N.Ya. Rossiya i Yevropa. Spb., 1995.
7. Danchenko S.I. Razvitiye serbskoy gosudarstvennosti i Rossiya. M., 1996.
8. Degoyev V. Rossiya i Krymskaya sistema (1856-1871g.) //Rossiya XXI. 2000. №4. Yevropeyskiy kongress velikix derjav v Berline v 1877g. M., 1978.
9. Zarubejnyye slavyane i Rossiya. Dokumenty. 40-80-gody XIX v. M., 1975.
10. Zubareva Ye.Yu. Prussiya v Krymskoy voyne: nezametnyy pobeditel//Vestnik Moskovskogo universiteta. Ser. 8. Istoriya. 2006. №3.
11. Istoriya diplomatii. Pod red. V. A. Zorina i dr. V 5 t. M., 1963. T. 1-2.
13. Istoriya diplomatii. Sostavitel A.Laktionov. M., 2009.
14. Kosik V.I. Russkaya politika v Bolgarii. M., 1991.
15. Martinin O.V. “Yevropeyskiy konsert” v 1853-1856 gg. Solnyye i xоровыe partii yevropeyskix monarhov v gody Krymskoy voyny. – Yevropeyskiye monarxi v proshlom i nastoyashem.XVII –XX vv.SPb., 2001.
16. Melnikova L.V. Svyatyie mesta v sentre Vostochnogo voprosa: serkovno – politicheskiy faktor kak odna iz prichin Krymskoy voyny // Novaya i noveyshaya istoriya. 2008, №2. S. 61-62.
17. Naumova Yu.A. Sanitarno-medisinskiye sredstva i poteri russkoy armii v Krymskuyu voynu// Vestnik Moskovskogo universiteta. Ser. 8. Istoriya. 2006. №5.
18. Novechev A.V. Istoriya Tursii. Novoye vremya (1853-1875). L., 1978.
19. Osvobojdeniye Bolgarii ot tureskogo iga. Dokumenty. V 3 t. M., 1961-1967.
20. Rossiyskoye obshchestvo i zarubejnyye slavyane. XVII - 1918. M.,1992.
21. Rybachenko I.S. Klyuchi ot Chernogo morya (na rubeje XIX-XX vekov)// Novaya i noveyshaya istoriya. 2009, №2.
22. Tarle Ye.V. Krymskaya voyna. V 2 t. M., 1950.
23. Tarle Ye.V. Yevropa v epoxu imperializma. 1871- 1919 gg. M. L., 1928.
24. Cherkasov P.P. Na taynom fronte Krymskoy voyny // Novaya i noveyshaya istoriya. 2007, №3.

